



**Tadqiqot uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**2020**

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



**№16**

2 июнь

**conferences.uz**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
12-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
16-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-12**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
16-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-12**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 16-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрел 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 70б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

**3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

**6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

**7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

## **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

## **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

## **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

## **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## **20.Ветеринария**

Жалилов Фазилидин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

## **22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## **24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

## **25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1.Алижонова Наргиза Рашидjon қизи</b> АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ДАВРИДА ЁШЛАРДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.....	8
<b>2.SADATOVA NODIRA QUDRATILLO QIZI</b> YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH VA ULARNING BO'SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH BORASIDAGI QILINGAN MUHIM TASHABBUS.....	10
<b>3.Saidova Dilnavoz Saidovna</b> AJDODLARIMIZNING MA'NAVIY MEROSI ASRLARGA TATUGULIK HAZINA.....	13
<b>4.Usmanov B.A, Norkuziyeva M.P</b> TANIQLI RUS RASSOMLARI ASARLARINI O'LANISH MISOLIDA, YOSHLAR ORASIDA BADIY VA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH.....	16
<b>5.Алижонова Наргиза</b> МЕСТО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ.....	18
<b>6.Исломова Ҳилола Файзиллоевна</b> ЎҚУВЧИЛАРНИ ҚАЛБ ТОЗАЛИГИГА ЎРГАТИШ ОРҚАЛИ УЛАРДА САЛБИЙ ОЎИШЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ЭРИШИШ.....	21
<b>7. Мирзаева Малика Бахадировна</b> АЛОҚА ТАРМОҶИНИНГ ИШЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УМУМЛАШТИРИЛГАН МЕЗОНИ.....	24
<b>8. Исмаилов Камолиддин Саидахмадович</b> ГУРУҲЛИ ФИЛЬМ-ПОРТРЕТЛАР ХУСУСИЯТЛАРИ.....	27
<b>9. Muqassar Achildiyeva, Bekhzodbek Tursunboyev</b> COMPOSER SCHOOLS IN UZBEKISTAN (An example of the work of composer B.B.Nadejdin).....	29
<b>10. Муяссар Ачилдиева,</b> МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (Ўзбекистон композиторлари ижоди мисолида).....	32
<b>11. Ahunjonova Dilzodaxon</b> MUSIQA SAN'ATIDA KLASSITSIZM OQIMI.....	35
<b>12. Мафтуна Алимбаева</b> СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРТЕПИАННОГО КОНЦЕРТА Л. БЕТХОВЕНА.....	37
<b>13. Farmonova Guzal Farmonovna</b> TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA HORIJ TAJRIBASI.....	39
<b>14. Komiljonova Dilbarxon Shukurjon qizi</b> O'ZBEK MILLIY MEROSIY RAQSLARIMIZNING INTERNET TARMOQLARIDAGI O'RNI.....	41
<b>15. Alimbayeva Maftuna</b> INSON RUHIYATINING KAMOLOTIDA SIMFONIK MUSIQANING O'RNI.....	43
<b>16. Gulmira Normuminova, Ozoda Arziqulova</b> NIKOLAY METNER MUSIQIY MEROSIDA FORTEPIANO UCHUN YOZILGAN SONATALARNING O'ZIGA XOS O'RNI.....	45
<b>17.Turg'unova Mohinabonu Akmaljon qizi</b> UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MILLIY MA'NAVIYATIMIZ UYG'UNLIGI- MILLIY TIKLANISHNING MUHIM ASOSI.....	47

<b>18. Исмаилов Камолиддин Саидахмадович</b> ГУРУҲЛИ ФИЛЬМ-ПОРТРЕТЛАР ХУСУСИЯТЛАРИ.....	49
<b>19. Мирзакаримова Рузахон Алишер қизи, Пардабоев Рустам Асатулло ўғли</b> МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ МИЛЛАТНИНГ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИ.....	51
<b>20. Равшан Полатович Чарыев</b> ПРОБЛЕМА ТВОРЧЕСКОГО ПРОСТРАНСТВА БАЛЕТМЕЙСТЕРА- РЕЖИССЕРА РАВШАНА ЧАРЫЕВА.....	53
<b>21. Узакова Муниса Абдурахим кизи</b> "БОБУРНОМА"ДА МУСИҚАГА ОИД ҚАРАШЛАР.....	55
<b>22. Egamberdiyev Samandar Maxmarijabovich</b> SHINGIZ AXMAROV IJODIDA SHARQ ALLOMALARI OBRAZI.....	57
<b>23. Коркмас Сагатович Сагатов</b> УЗБЕКСКИЙ ТАНЕЦ - НАЦИОНАЛЬНОЕ ДОСТОЯНИЕ.....	59
<b>24. А.А. Магдиева</b> ТРАДИЦИОННОЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ИСКУССТВО В ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА.....	62
<b>25. Курязова Дармонжон Тураевна</b> МУЗЕЙ ФОНДЛАРИНИ САҚЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	64
<b>26. М. Исокова</b> МУСИҚАЛИ ТЕАТРДА РЕЖИССЁР ВА РЕПЕРТУАР МАСАЛАСИ.....	67



## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИ

### АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ДАВРИДА ЁШЛАРДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

**Алижонова Наргиза Рашидjon қизи**  
**Ўзбекистон давлат санъат ва маданият**  
**институтини ўқитувчиси**  
**+998946563410**  
**nargiza.alijonova@mail.ru**

*Аннотация. Мазкур мақолада глобаллашув жараёнида ёшларнинг маънавий салоҳиятини шакллантириш ҳамда уларда миллий ғоя, миллий ғурур, ор-номус билан боғлиқ маънавий-руҳий ҳолатларини мустаҳкамлашда мутолаа маданиятининг таъсир жараёнлари ёритилган..*

*Калит сўзлар: Ахборот технологиялари, мутолаа маданияти, миллий ғоя, миллий ғурур, интеллектуал тафаккур, эстетик тарбия, қадрият, таълим, ахлоқ*

Ахборот технологиялари ва телекоммуникация воситалари жадал ривожланаётган бугунги даврда талабаларни интеллектуал салоҳияти ривожланиши билан бирга уларнинг ахлоқий тарбиясида ҳам муаммолар юзага келмоқда. Шундай экан, бугунги кунда таълим-тарбия тизими замон талабига жавоб бера оладиган илғор ғоялар ва тарбиявий фаолиятлар асосида олиб боришни яънада тадқиқ этишни тақозо этмоқда.

Ахборот технологиялари жамиятнинг ривожланишида, мамлакатларни ривожланган дунё ҳамжамиятидан ўрин эгаллашида, илм-фан ютуқларини тезлик билан тарқалишига имконият яратди, жамият ва давлат ҳаётида кескин ижобий ўзгаришларнинг юз беришига сабаб бўлиб, инсоният тараққиётини янги босқичга олиб чиқмоқда. Лекин ҳар бир нарсанинг оқ ва қора жиҳатлари бўлганидек, бугунги кунда ахборот технологияларининг жамият ва давлатга нисбатан юзага келаётган психологик таъзийқлари ва улурнинг натижалари ачинарли ҳолатга олиб келмоқда. Таъкидлаш лозимки, талабаларда маънавий онгни ривожлантиришда аввало ахборот истеъмоли маданиятини шакллантириш орқали методологик механизмларни йўлга қўйиш лозим. Чунки ахборот ҳозирда глобал кучга эга ва бевосита инсон тафаккурига таъсир қилади. "Психологлар ўтказган тадқиқотларга кўра, аҳолининг 15-25 фоизигина ахборотни танқидий нуқтаи назардан ўзлаштиришга қодир, қолган 75 фоиз одамлар эса олинган ахборотнинг таъсирини шундайлигича берилиб кетади" [1.]

Бу кўрсаткич ўз навбатида ахборотни инсонларга маънавий-психологик таъсир кучи юқорилигини кўрсатади. Бундан ташқари, интернетда яратилаётган имкониятлар, турли хилдаги ижтимоий сайтлар ёшларни ўз домига тортиши орқали уларни бошқариш хусусиятига эга бўлмоқда. Айрим ёшлар айнан шу сайтлар асосида кундалик турмуш тарзини режалаштирмоқдалар, айримлар бўш вақтини фақатгина мазкур машғулотга бағишлайди.

Инсон онги доимий тарзда янги маълумотларга - ахборотга эhtiёж сезиб яшайди. Шундай экан ёшларимиз онгу тафаккурини янги бунёдкор ғоялар билан тўлдириш,





унда вайронкор ғоялар эгаллашига йўл қўймаслик лозим. Шундагина ёшларда ахборотни танқидий нуқтайи назардан таҳлил этиш хусусияти юзага келади. Бу ўз навбатида ахборот истеъмоли маданиятини шакллантиради. Шу ўринда китобхонлик маданиятини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозирда "китобхонлик маданияти", "мутолаа маданияти" каби атамалар кенг қўлланилмоқда. "Мутолаа" сўзи араб тилидан олинган бўлиб, "ўқиш" деган маънога эга, у фақатгина китоб ўқишдан кўра кенгроқ тушунчани англатади. Мутолаа кўникмаси ижтимоий гуруҳлар ва алоҳида индивидларнинг умумий маълумот олишга йўналтирилган жараён ҳисобланади. Мутолаа маданияти асосида ёшларда китобхонлик маданияти шаклланиб боради. "Китобхон" деганда талабанинг нечта китоб ўқиганлида эмас, балки китобни қандай идрок этиши, ундаги воқеаларга ўз фикрини билдира олиши ҳамда китобдаги асардан олган билимларини ҳаётда тўғри қўллай олиши билан бирга баҳоланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилган "Ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та муҳим ташаббус" ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш, уларда ёт ғояларга қарши иммунитет ҳосил қилишга, маънавий оламини бойитишга қаратилган. Тўртинчи ташаббусда ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этиш белгилаб қўйилган. [2.]

Талаба-ёшларда китобхонлик маданиятини ривожлантиришда олий таълим муассасаларида ташкил этилган "Ахборот мураббийлик соати" машғулотларида бир ойда икки мартадан ҳар бир аудиторияда "бадий асар таҳлили" дарсларини ташкил этиш, ижтимоий сайтлар орқали китоб рекламаларини кенгайтириш, нафақат ижтимоий сайтлар балки телевидение ва радиоларда китоб рекламаларини янада кучайтириш лозим.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, асрлар давомида инсоннинг ақлий ва маънавий-ахлоқий сифатларини камол топишида мутолаа маданияти муҳим вазифа бўлиб хизмат қилиб келади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Қуронов М., Даминов И., Юнусов А. Дунёнинг мафкуравий манзараси - Т.: Муҳаррир нашириёти, 2017. -134 б.
2. Кахарова М. Ижтимоий маконда ахборотдан фойдаланиш маданияти - Т.: Маънавият нашириёти, 2018. -



## **YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH VA ULARNING BO'SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKIL ETISH BORASIDAGI QILINGAN MUHIM TASHABBUS.**

**SADATOVA NODIRA QUDRATILLO QIZI**

**Surhondaryo viloyati Termiz shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli**

**14-umumiy o'rta ta'lim maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi.**

**Telefon:+998971454333**

**nodi7777.uz@mail.ru**

*Annotatsiya: mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining muhtaram prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbuslari bilan joriy qilingan 5 ta muhim tashabbusning 4-tashabbusi keng miqyosda qamrab olingani va yoshlarni bo'sh vaqtlarini kitob bilan mazmunli o'tkazishlari batafsil yoritilib berilgan.*

*Kalit so'zlar: to'rtinchi tashabbus, ma'naviy ozuqalar, texnologiya va texnologiyaning ta'siri.*

Barchamizga ma'lumki, insonni, jumladan, o'sib kelayotgan yosh avlodni xalqimizga, vatanimizga munosib avlod, yetuk ma'naviyatli inson va o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishi uchun ta'lim va tarbiya berish eng muhim vazifalardan biridir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazilgan edi va unda Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etishi, ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilganligi va shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanib, yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi deb ta'kidlangan edi.

Shunga ko'ra, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdilar. Bu muhim tashabbus 5 ta turli sohalarni o'z ichiga olgan tizimdan iborat va hammamizga ma'lumki bular quidagi tashabbuslar: Birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus - aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus - xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi. Guvohi bo'lganimizdek har bir tashabbusning o'z vazifalari mavjud va bugungi kunda yoshlar orasida eng dolzarb bo'lgan tashabbuslardan biri bu To'rtinchi tashabbus aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari hisoblangan kitobxonlikni rivojlantirishdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, 19 mart kuni shu borada videosektor yig'ilishi o'tkazilib, birlamchi vazifalar belgilab berilgan edi. Ularga asosan har bir yo'nalish bo'yicha dasturlar loyihalari ishlab chiqildi. Yig'ilishda mazkur dasturlarga kiritilgan takliflar, ularni amalga oshirish mexanizmlari muhokama qilindi. Jumladan, "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida



kitobxonlikni keng targ'ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi to'rtinchi tashabbus maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Unga ko'ra, har bir hududga 1 million donadan badiiy, tarixiy, ilmiy, ommabop mavzulardagi kitoblar yetkazib berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish ham belgilangan."deb ta'kidlaydi Buxoro davlat yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va ma'rifat bo'limi. Yana shuni ham aytib o'tishganki, Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga "Kitob karvoni" loyihasi doirasida badiiy, ma'rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'lmagan miqdorda yetkazib berish bo'yicha topshiriq berdi. Bu tashabbus bo'yicha barcha viloyatlar orasida keng qamrovli ishlar olib borilyapti bunga misol qilib, Namangan viloyatida "Ma'rifat karvoni" tashkil etilgani va yoshlar uchun 25 ming dona turli janrdagi kitoblar yetkazib berilganligi, Sirdaryo viloyatida qisqa vaqtda tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berilgani, musiqa va san'at maktablari cholg'u asboblari va boshqa ma'naviy ozuqalar olish mumkin bo'lgan manbalar bilan ta'minlangani, Surxondaryoda shunga oid ko'plab ishlar amalga oshirildi yangi Axbarot resurs markazi tashkil etilib turli shar- sharoitlar mujassamlashtirildi. "Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon..." deydi, O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" asarida. Bu o'z o'rnida juda to'g'ri aytilgan gap lekin faqatgina ko'rish bilan cheklanibgina qolmay, kitob ham o'qib turish kerak negaki so'nggi paytlarda kitobxonlik borasida nafaollik sezilarli darajada ko'zga tashlana boshladi. Bu muammolarni yechish maqsadida muhtaram prezidentimizning to'g'ri yondashuvi asosiy omil bo'ldi negaki, o'sha tashabbus bilangina har bir o'sib kelayotgan yosh avlod ongli ravishda taqdim qilinayotgan kitoblarga befarq qrashmayapti. Xalq ta'limi tizimida kitobxonlik borasida keng miqyosda ishlar olib borildi ya'ni "Bolaga kitob bering" nomi ostida turli tanlovlar tashkillashtirilmoqda.

Jumladan Termiz shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli Termiz shahar 14-umumiy o'rta ta'lim maktabida har oy " Farzandim kelajagi mening kelajagim" mavzusida ota-onalar o'rtasida farzandlari o'qiydigan maktabga kitoblar hadya qilish tanlovi o'tkaziladi. Ota-onalar tomonidan turli xildagi badiiy kitoblar, hikoya va she'riy novellalar olib kelinib taqdim etiladi. Bundan ko'zlangan maqsad farzandlarini kitobga bo'lgan qiziqishini yanada orttirish. Shu bilan bir qatorda to'rtinchi tashabbusni qo'llab- quvvatlash va uni yanada takomillashtirish maqsadida haftalik " Men o'qigan asar" mavzusida tanlov bo'lib o'tadi va bu tanlov boshlang'ich sinflardan boshlab, yuqori sinf o'quvchilarini ham o'z ichiga oladi. Bunaqa tanlovlardan so'ng har bir o'quvchi bimalol kitob mutolasi bilan shug'ullana oladi. Shunaqangi turli tanlovlar orqali kitobxonlikni yoshlar o'rtasida rivojlanishi yanayam osonlashadi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Negaki, har bir yosh borki, qo'lida kitob bilan go'zaldir. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonaviy hayotda hayotni zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin, ammo buning salbiy tomonlari ham mavjud ko'plab yoshlar texnologiya ya'ni komyuter, mobil aloqalarga juda mukkasidan ketgan natijada, bu ularni kitobni unutilib yuborishiga olib kelishi mumkin. Shu bois bunaqangi tashabbus eng kerakli vaziyatda va kerakli vaqtda amalga oshirilishi ko'plab muammolarni oldini olishga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida takidlash joizki, ayni bugungi holatimizda hamma uyda qolishga majbur bo'lgan bir vaqtda to'rtinchi tashabbus juda muhim rol o'ynaydi desak mubolag'a bo'lmaydi chunki uyda o'tirgan barcha yoshu qari borki vaqtini bekorga o'tkazishni istashmaydi. Shu bois kitobxonlik eng ajoyib tanlov bo'libkina qolmay, balki ezgu ishlarni boshlash uchun bir turtki hamdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1." Kitobxonlik -ma'naviyat sarchashmasidir" O'zDJTU- O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, O'zDJTU Matbuot xizmati 30- May 2019.

2. "Tushda kechgan umrlar" O'tkir Hoshimov . G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2018.

3.<https://mfa.uz> >news 2019/03



## AJDODLARIMIZNING MA'NAVİY MEROSI ASRLARGA TATUGULIK XAZINA

**Saidova Dilnavoz Saidovna**  
**Navoiy Viloyati Zarafshon shahri**  
**10-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi**

*Annotatsiya: Buyuk ma'naviy merosimizdan faxrlanib ,ko'hna tarixiy yodgorliklarimizdan g'urur tuyib, ajdodlarimizga munosib voris bo'lishga da'vat etamiz.*

*Kalit so'zlar: Tarix, ma'naviy meros, ko'hna tarixiy yodgorliklar, ajdodlar merosi.*

### Saodat sohili

**Tuproq sening qarzing kimdan,  
Muncha saxovat, muncha hikmat.  
Quyosh sening arzing kimdan,  
Bu zaminda bordur xislat.  
Bir hovuch tuproqdir Vatan!  
Vijdonga so'roqdir Vatan!**

**O'zbek sening noming ulug',  
Kimlar senga qildi qulluq.  
Mustaqillik bergan imkon,  
Faqat ayting Vatanga shon.  
O'zbekcha nom oldi Vatan!  
Butun jahon tan oldi Vatan!**

**Kubro tutgan Yalovmu-u,  
Chingiz yoqqan olovmi-u.  
Bobur ketdi alam bilan,  
Toji Mahal to'lovmi-u  
Ushalmagan firoq Vatan!  
Yovga qalqon Shiroq Vatan!**

**Kuylang qo'shiq taronasi,  
Bugun saxovat oshyonasi.  
Imkonimiz ko'pdir hali,  
Budur saodat sohili.  
Himoya qo'rg'onimsan Vatan!  
Ishongan tog'imdirsan Vatan!**

Tarix charxpalagi aylanadi, bu ko'hna zamin nene urushlar, suronli jangu -jadallar ko'rmadi. Tariximizning suronli yillarida bizga saboq bo'luvchi ajdodlarimizning buyuk ma'naviy merosi, madaniy boyliklarimiz, ko'hna tarixiy yodgorliklarimiz bizga meros bo'lib qolgan. Ming yillarkim jahon ayvonida Amu daryo xazinasidek dunyoni lol qoldirgan, Buyuk Iskandarga "Saodat sohili" deb ta'riflangan yurt bu ikki daryo kokilini yuvgan Ona Vatan O'zbekistondir.

Dunyoni lol qoldirib kelayotgan qadimiy shaharlarimizdagi ko'hna tarixiy obidalar shu kunga qadar o'z tarovatini yo'qotmay kelayotir. Vatanimiz tarixi va xalqimiz qoldirgan buyuk ma'naviy merosdan har qancha faxrlansak arziydi. Inglizlar Nuyutondan qanchalik minnatdor bo'lsa, fransuzlar bosqinchi bo'lsada Napalyonni shunchalar ulug'lashadi, o'zlarini buyuk xalq deb hisoblaydigan nemislar Iyogan Sebastiyani Baxni hamma ham tushuna olmaydigan musiqalarini o'zlari tushunib tushunmay ko'klarga ko'tarishadi. Bizning ma'naviy merosimiz esa ming chandon ortiqroq kim, shashmaqom kuylariga tarjimon kerak emas. Bundan uch ming yil muqaddam yaratilgan Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan topilgan qadimiy nay xalqimizning ma'naviy merosi qanchalar qadimiy ekanligidan dalolat beradi.1

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng 1993-y 29-oktyabrda O'zbekiston BMT ning fan, ta'lim, madaniyat masalalar bo'yicha qo'mitasi YuNESKO ga a'z obo'ldi. 1994-yilda oktyabrda Parij shahrida Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi, 1996-yilda Amir Temurning 660 yilligi xalqaro miqyosida nishonlanishi buyuk ajdodlarimiz xotirasiga jahon hamjamiyatining naqadar hurmatidan dalolat beradi. Qadimiy shaharlarimiz Buxoro va



Xiva shaharlarining 1997- yilda 2500 yilligi YuNESKO hamkorligida nishonlandi va bu sharlardagi tarixiy obidalar butun jahon madaniyati ro`yxatiga kiritildi. Bugungi kunda butun jahon madaniyati ro`yxatiga O`zbekistondan 411 ta obyekt kiritilgan. YuNESKO ning insoniyatning nomoddiy madaniyat merosi ro`yxatiga 2008-yilda-Shashmaqom va Boysun madaniyati merosi, 2009- yilda Navro`z bayramidagi udumlarimiz va xalq laparlari hamda Askiya san`atimiz kiritilgan. Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahrida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa fetuvali o`tkazilib kelinmoqda. 2017-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qarori bilan O`zbek milliy maqom san`ati markazi tashkil etildi. 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida ikki yilda bir marotaba Xalqaro maqom festuvalini o`tkazish belgilandi. 2018-yil sentyabr oyida Xalqaro maqom festuvali tashkil etildi. 3

Tarixiy obidalar ko`hna tariximizning ming yilliklaridan hikoya qiladi. Buxoroning Minorayi Kalonidagi Frunze to`plarining izlari, Samarqandning Afrosiyobidagi qilichlar izi, ko`hna Urganchdagi suv to`g`onlari yurtimizga bostirib kelgan bosqinchilarning qanchalik urunmasin bu zamindagi xalqning boyligiga ega chiqishi mumkin, lekin ma`naviyatini buza olmasligidan dalolat beradi. Zero tarixning o`zi buyuk o`qituvchidir. Qaysi bir davrda zulm kuchayib yurtimizga bosqinchilar bostirib kirgan bo`lsa ma`naviyat eng zaif nuqtaga ayladi. Bu davrlarda buyuk allomalar yetishib chiqmadi. Qaysi davrda yurtimizni o`zimizdan chiqqan hukumdorlar boshqargan bo`lsa shu davrda ilm fan va madaniyat rivojlandi, qay davrda zulm kuchaysa bu davrda ilm ahli quvg`in qilingan. Bunga misol Somoniylar davrida "Sharq uyg`onish davri" boshlanib, Al Xorazmiy, Ahmad al-Farg`oniy, Ibn Sino, Beruniy, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk zotlar yetishib chiqdi. Mo`gullar bosqini davrida esa ilm-fan, madaniyat zavolga yuz tutdi. Temuriylar davrida ikkinchi "Sharq renesansi" ochildi. Bu davrda Mirzo Ulug`bek, G`iyosidin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Xondamir, Mirzo Bobir kabi buyuk daholar yetishib chiqdi. 2 Yurtimizni chor Rossiyasi bosqini davrida esa ilm ahli qatag`onga uchrab, millatning tarixini, ma`naviyatiga daxl qilindi.

Mustaqilligimiz tufayli buyuk ma`naviyatimizga, tarixiy shaharlarimizga, ona tilimizga e`tabor kuchaydi. Bizga buyuk ma`naviyat xazinasi meros bo`lib qolgan. Ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosga munosib voris bo`layluk.

### Ajdodlarga munosib voris bo`laylik

Temurbek, Ulug`bek avlodlarimiz,  
Navoiy, Boburning zurriyotlari.  
Farg`oniy, Buxoriy izdoshlarimiz,  
Kelinglar tarixdan saboq olaylik.  
Ajdodlarga munosib voris bo`laylik.

Xorazmiy nomin berdilar fanga,  
Dunyo tazimdadir Ibn Sinoga.  
Ularning o`giti sigdirib tanga,  
Kolumbdek Beruniyni alqab yashaylik.  
Ajdodlarga munosib voris bo`laylik.

Bir qo`lda yalov, bir qo`lda qilich,  
Mo`g`il kelayotir, yurt esa notinch  
Yurakni o`rtaydi bir his, bir sog`inch,  
Ko`rinmas yovga qarshi birga bo`laylik  
Ajdodlarga munosib voris bo`laylik.

"Din, millatning hujjati"-Marg`iloniyda,  
"E`tiqodimiz tuzatuvchi"-Maturidiyda.  
Ko`ngilda olloh yodi o`zi -Naqshbandiyda,

Arab kelib mo`l-ko`l xalq dedilar,  
Mo`g`il kelib, zo`r-zo`r xalq dedilar,  
Ruslar kelib ko`r-kar xalq qildilar,



Kelinglar alarning ruhini shod etaylik  
Ajdodlarga munosib voris bo`laylik.

Kelinglar hurlikka tahsin aytaylik,  
Ajdodlarga munosib voris bo`laylik.

Jonini Shiroq kabi berganlar qancha,  
Muqannadek olovda yonganlar ancha,  
Alpomish, Go`ro`g`li mardlaring shuncha,  
Kelinglar birgalikda- birga yengaylik,  
Ajdodlarga munosib voris bo`laylik.

Rim va Samarqanddir boqiylik aksi,  
Toshkentim poytaxtim obodlik fasli,  
Qaddingni tik tut Buxoriy nasli,  
Kelinglar birlashib birga yengaylik,  
Ajdodlarga munosib voris bo`laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.Imom Buxoriy xalqaro markazi tomonidan "Buyuk yurt allomalari"-T "O`zbekiston"  
2018
- 2.Bo`riboy Axmedov "Amir Temurni yod etib"-T "Fan" nashryot davlat korxonasi  
2018
- 3.Narzulla Jo`rayev, Akbar Zamonov "O`zbekiston tarixi" -T G`afur Gulom nomidagi  
nashryot-matbaa ijodiy uyi 2018



## **TANIQLI RUS RASSOMLARI ASARLARINI O'RANISH MISOLIDA, YOSHLAR ORASIDA BADIY VA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH.**

**Usmanov B.A**

**Guliston davlat universiteti o'qituvchisi**

**+99899 9922788 (telegram+99894 9366900)**

**botirusmanov3@gmail.com**

**Norkuziyeva M.P**

**Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani, 11-maktab o'qituvchisi**

**+99891 1011665**

*Anotatsiya: Ushbu tezisda yoshlarning tasviriy san'at asarlarini tushunish, uni o'qiy olish va estetik zavq ola bilish uchun eng mashxur tarixiy usta-rassomlar asarlarini o'rganishga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: Estetika, badiiy me'ros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar.*

Jamiyatimizda katta xayrli o'zgarishlar davom etmoqda. Yangi tashkil etilgan akademik litsey, kollejlarda tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar dunyosi borliqqa go'zallik, nafasat qonuni orqali qarashga undaydi.

Rangtasvir san'ati sirlarini o'rganish, u o'zbek xalqining ko'p asrlik badiiy merosi, uning jahon san'ati taraqqiyotida tutgan o'rni haqida tasavvur beradi. Tasviriy, amaliy san'at va dizayn sohasi ijodkorlarini, eng avvalo yosh iste'dodlarni xalqimizning boy ma'naviy dunyosini, shuningdek jahon tasviriy san'ati durdonalarini o'rganishda yaqin ko'makchi hamdir. Shu jihatlarni hisobga olib, ko'rgazma faoliyati orqali o'zbek tasviriy san'ati yutuqlarini O'zbekiston va xorijda keng tanitib kelayotgan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi a'zolarining durdona asarlari hamda shu bilan birga, ko'p yillik tarixiga ega bo'lgan rus rassomlarining asarlari bilan ham yoshlarni tanishtirib qo'yish va ularning tasviriy san'atni rivojlanishiga qo'shgan hissalaridan bohabar qilish kerak. Umuman, "tasviriy san'at asarlari"ni tahlil qilish, o'z bilim va tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at turlari ichida rangtasvir fan sifatida ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda o'zining keng imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Rangtasvir fani ijodiy faoliyat, san'atkorning dunyosi, borliqni, uning go'zalligini ranglar orqali ko'rish va tasavvur etish, haqiqiy san'at asarini qadrlashni o'rgatadi.

Bu fanning bosh maqsadi - o'quvchilarda badiiy madaniyat va badiiy fikrlash tafakkurini yuksaltirish hamda ijodiy faoliyatni tarbiyalashdan iboratdir.

Rangtasvir o'quv fani o'z oldiga qo'ygan vazifalar quyidagilardan iborat:

- Atrof muhitdagi ranglarni ko'ra olish va ularni idrok etishga o'rgatish.
- Badiiy qobiliyat, did va fikrlash faoliyatini o'stirish.
- Rangtasvirning nazariy asoslari: nur-soya, rangshunoslik, perspektiva va fazoviy tasavvurni o'stirish, shuningdek rangtasvir san'atining turlari, janr, oqim, atam a va iboralari haqida tushuncha berish.
- Rangtasvir asarlarini o'qiy olish va rang ko'rish malakasi, ko'nikmalarini rivojlantirish.
- O'quvchilarni turli kasb-hunarga yo'naltirish va vatanparvarlik, avvalambor milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini tarbiyalashga qaratiladi.

Har qanday tomoshabin tasviriy san'at asari qarshisida turar ekan, uning hajmi, muallifi, mavzusi, asarni tashkil etuvchi shakllar (figura), narsalar, detallar va ularga berilgan ranglarga qaratayotgan e'tibori darajasi, o'sha asarning qarshisida turish vaqtiga





bevosita ta'sir qiladi. Misol tariqasida sizga hozir XIX asrda yashab ijod qilgan rus rassomlaridan Vasiliy Ivanovich Surikovning (1848-1916) mashxur "Boyar ayol Morozova" ga bag'ishlangan asarini biroz tahlil qilamiz. Bu asarni ko'zdan kechirarkansiz u vaqtdagi yashagan insonlar, tuzimi, turmush sharoiti, kiyinishi va hayotiy muhitini his qilgandek bo'lasiz. Bu asarning bosh qahramoni, barchaga o'ng qo'lini ishora bilan yuqoriga ko'tarib, takid bilan murojat qilayotgan boyar ayolning va atrofdagilarning yuz ifodasidan u yerdagi voqeani yanaham anglashga yordam beradi. Ayolning barchaga aytayotgan so'zlari va bir joyga to'planib olgan olamonning shovqinini tuygandek bo'lasiz. U yerdagi iqlim, sovuq havoni rassom ustalik bilan ranglar orqali ochib bergan. Yana bir e'tiborli jihati, boyar ayol o'tirgan otga qo'shilgan chana yonida, chopib borayotgan bola obrazi tasvirlanishi, shu chanani yurib, harakatlanib borayotganini ifodalab bergan.

Bu asarni kuzatar ekansiz, o'sha davr madaniyati, vatanparvarlik, sodiqlik, hayotning hamda taqdirning sinovlariga tik boqish, sabr qilmoqlik, shukronalik va boshqa shu kabi insonni o'ylashga, tafakkur qilish, to'g'ri xulosada bo'lishga undovchi tuyg'ularni anglash mumkin.

"Rassom emas, uning chizgan asarlari gapiradi"- deyishdi. Darhaqiqat, musavvir o'z asarini yaratish barobarida, unga o'z fikr va qarashlarini singdiradi, shu orqali tomoshabin bilan g'oyibona so'zlashadi go'yo. Shunday ekan rassom asarini kuzatish ham bir qobiliyat desak adashmaymiz, hozirgi davr yoshlari, ularning zamonaviy intellektini yanada rivojlanishida tasviriy asarlaridan bahramand bo'lish, uni tushunish va tahlil qila olishga, inson qo'l mehnati hamda qalb hosilasini qadrlashga, go'zallikni anglay bilishga o'rgatsak, albatta bu har qanday zamonda o'z samarli natijasini beraveradi.

Foydalanilgan adabiyot va internet ma'lumotlari:

- 1) RANGTASVIR, T. Qo'ziyev, A.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov "San'at" jurnali nashriyoti, Toshkent- 2003
- 2) <http://n.ziyouz.com>



## МЕСТО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В РАЗВИТИИ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ

**Алижоновна Наргиза**

**Государственный институт искусств и культуры Узбекистана  
+998946563410**

*Аннотация. В этой статье описываются процессы влияния искусства на формирование нравственного иммунитета студенческой молодежи и укрепление их духовно-психологических состояний, связанных с национальной идеей, национальной гордостью, честью и достоинством.*

*Ключевые слова: национальная идея, национальная гордость, интеллектуальное мышление, эстетическое воспитание, ценность, образование, этика.*

Развитие любого общества связано с отношением молодежи к ценностям национальной идеи, её воздействием на сознание молодежи. Поэтому духовно-психологические состояния молодежи, связанные с национальной идеей, национальной гордостью, честью и достоинством имеют особое значение. На сегодняшний день для формирования духовности молодежи, развития их идеологического иммунитета, воспитания у них чувства причастности к судьбе Родины разрабатываются все новые механизмы и технологии. Однако, несмотря на это, в результате изменений, связанных с глобализацией, у молодежи наряду с развитием интеллектуальных способностей возникают новые духовно-психологические потребности, что диктует необходимость дальнейшего исследования данного процесса.

В постановлении Президента Республики Узбекистан №3907 от 14 августа 2018 ода "О мерах по поднятию на качественно новый уровень системы духовно-нравственного и физически гармоничного воспитания молодежи, ее обучения и воспитания" были указаны недостатки, имеющие на сегодняшний день место в процессе обучения и воспитания, формирования духовно-нравственного сознания молодежи. Вместе с тем, разработаны меры по устранению указанных недостатков, меры по повышению социального статуса работников образовательной сферы.

В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан отмечается, что важнейшей и актуальной задачей в духовно-просветительской сфере является воспитание высоко нравственной, обладающей современными знаниями и профессией молодежи, развитие их чувства уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, формирование в душе и сознании наших детей идеологического иммунитета .

Нравственное богатство человека, его мировоззрение, духовный мир составляет эстетическое восприятие, осознание мира, и поэтому культура, искусство остаются неотъемлемой частью духовной жизни общества. Культура и искусство определяют эстетический вкус и культуру поведения человека, оказывает влияние на формирование его морали, средствами различных направлений культуры и искусства, как литература, кино, театр, музыка, изобразительное и прикладное искусство оказывается воздействие на формирование социальных отношений, доведение до сознания людей идеи национальной независимости.

Искусство по своей философской природе ближе людям по сравнению с областями науки и поэтому передает больше духовный и социальный опыт. Его влияние на восприятие человека не обладает прямым дидактическим и официальным характером. Ибо влияние художественного описания



привлекательнее и эффективнее чем назидание.

Театральное искусство - одно из действенных средств формирования и развития духовности молодежи. В нем действительность художественно отражаясь через действия актеров (персонажей) оказывает воздействие на психику и сознание зрителя. Театр отражает не только различные проблемы, имеющие место в жизни общества, взаимоотношения людей, но и воссоздает жизненный путь великих наших предков, передавая дух того периода. К примеру, в спектакле режиссёра Рустама Хамидова "Алишер Навои" зритель видит великого гения Алишера Навои в качестве и визиря, и поэта, и простого проникновенного человека, формирует представление о несправедливости, интригах того времени, наряду с получением определенной исторической информации, он получает возможность проанализировать некоторые пороки общества, делать соответствующие выводы.

Важность театрального искусства хорошо понимали и представители джадидской культуры, которые стремились открывать школы, печатать газеты, и особое внимание уделяли развитию драматургии с целью развития культурного, общественного сознания. Посредством постановок произведений "Падаркуш" (Отцеубийца) Махмудходжа Бехбуди, "Бахтсиз куёв" (Несчастный жених) Абдуллы Кадыри, "Адвокатлик осонми" (Легко ли быть адвокатом) Абдуллы Авлони, "Захарли хаёт" (Отравленная жизнь), "Илм хидояти" (Блага науки) Хамзы Хакимзоде Ниязи они стремились формированию общественного сознания людей.

Слова Махмудходжа Бехбуди о том, что театр - это зеркало правдиво отражающее жизнь, он лучшая часть литературного мира. Театр - это место, где оживают мертвые, дающее жаждущему воду, бесстыжому - стыд, невоспитанному - воспитание, бессовестному - совесть, подчеркивают особую роль театра для формирования идеологического иммунитета молодежи.

На сегодняшний день в нашей Республике уделяется особое внимание развитию культуры, искусства, в том числе театрального. Свидетельством тому служит Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №9 от 5 января 2018 года "О мерах по укреплению материально-технической базы государственных театров и развитию их деятельности в 2018-2022 годах".

Театры страны делают многое для того, чтобы приобщить население страны, особенно молодежь к театральному искусству. Особое внимание данному вопросу уделяется и высшими образовательными учреждениями, так 10 театров, расположенных в городе Ташкенте, посещают студенты более 40 высших образовательных учреждений столицы.

Кроме того, ежегодно проводится смотр-конкурс студенческих театральных студий, которые функционируют практически в каждом ВОУ.

Несмотря на это, трудно утверждать, что посещение театров молодежью резко возросло. В чем же причина? Причина, на наш взгляд, заключается, в частности, в недостаточной подготовленности нашей молодежи к пониманию искусства. Молодежь следует учить не только смотреть, но воспринимать, осознавать, оценивать спектакль. И работу в данном направлении необходимо начинать в детских дошкольных образовательных учреждениях, в семье.

Некоторые студенты посещают театр только по настоянию руководителя группы или, как говорится, за компанию. Они не проявляют особого интереса к данному виду искусства. И это, нужно признать, упущение в том числе и образовательных учреждений, где у молодежи воспитывается любовь к жизни, к прекрасному, к искусству в том числе.

Для того, чтобы привлечь молодежь, которая предпочитает посещение кино, к театральному искусству, добиться его "возвращения" в театры необходимо



рекламировать спектакли. В телевизионном и радиоэфире часто наблюдаем рекламу художественных фильмов, порой даже и качество, содержание которых оставляет желать лучшего. Благодаря рекламе молодежь смотрит эти фильмы. Соответственно, следует создавать и демонстрировать в СМИ, в сети интернет рекламные ролики о новых постановках. Кроме того, театральную афишу в настоящее время можно видеть только рядом с театром. Ей необходимо размещать по всему городу, чтобы привлечь внимание зрителя, в том числе и молодежи.

В приобщении молодежи к театральному искусству особая роль принадлежит творческим вечерам выдающихся писателей-драматургов, режиссеров, актеров. Частые встречи деятелей театрального искусства, которых молодежь знает и любит, в том числе, и по ролям в кино, также могут привлечь внимание зрителя к данному виду искусства.

Проведение социальных опросов в образовательных учреждениях также может способствовать пропаганде театрального искусства. Ответы молодежи на такие вопросы, как "Нравится ли вам посещать театр?", "Какие спектакли вам больше нравятся (драматические, трагические, комедийные и др.)?", "Какой бы вы хотели посетить театр?" позволят организовать посещение театров с учетом интересов молодежи. Тем самым будет осуществляться пропаганда данного виду искусства.

Несравнима роль театральных коллективов в повышении интереса молодежи к данному искусству. Зритель тепло принимает спектакли, соответствующие духу времени, интересам зрителя, удовлетворяющие духовные потребности населения. Театр должен демонстрировать произведения, повествующие о самоотверженных людях, живущих в ногу со временем, закаленных испытаниями жизни. Необходимо создавать образы, служащие укреплению духовного мира наших детей, из честь и достоинство .

Целенаправленная и систематическая пропагандистская работа в образовательных учреждениях служат привитию любви к искусству, воспитанию у молодежи чувства прекрасного.

Каждый должен осознавать себя неотъемлемой частью общества, стремиться найти свое достойное место в нем. Это требование современности. Искусство же способствует воспитанию у молодого поколения высоких человеческих чувств, стремлений, осознанное отношение к природе, обществу, себе и своей жизни.

Список использованной литературы:

1. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан В 2017-2021 годах. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2017 г., № 6, ст. 70.

2. Бехбудий М. Театр надур? // Журнал "Оина". 1914 г, №29. С. 550-553.

3. Речь Президента Республики Узбекистан на церемонии открытия нового здания Бухарского областного театр музыкальной драмы. 30 августа 2010 года.



## ЎҚУВЧИЛАРНИ ҚАЛБ ТОЗАЛИГИГА ЎРГАТИШ ОРҚАЛИ УЛАРДА САЛБИЙ ОФИШЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ЭРИШИШ

**Исломова Ҳилола Файзилловна**  
**Навоий вилояти Зарафшон шаҳар,**  
**10-мактаб ўқув тарбия ишлари**  
**бўйича директор ўринбосари**  
**Телефон: +998933132879**

*Аннотация: Ушбу тезис мактаб ўқувчиларини турли салбий хулқий оғишишларнинг олдини олишда педагог ва психологларга хизмат қилади.*

*Калит сўзлар: туйғу, чеклов, вайрон қилувчи фиклар, ният тозалиги, айбдорлик туйғуси, воқелик, программа*

2020-2021 ўқув йилидан ўтилиши режалаштирилаётган тарбия дарсларида ҳамда мактаб психологлари томонидан ўтказиладиган тренингларда машҳур психологларнинг оддий ва самарадорлиги билан ўзига хос психологик методикалардан унумли фойдалана билиши фарзандларимизнинг танасини соғлом, ҳаётини ёрқин ва бахтли қилишга ёрдам беради. Бунда ўтиш даврида бўлган ўспиринлар ўз туйғуларини бошқариш, бошқаларнинг фикрини ўқишни ўрганати, кўрқув ва тушкунлик билан хайрлашади, айбдорлик туйғуси ва беҳудага ачинишдан воз кечади. Шунингдек бу ўқувчиларнинг ҳаётдан стресслар батамом чиқиб кетади. Психологиядан унумли фойдаланиш ўқувчиларнинг руҳий ҳолатини яхшилабгина қолмай, уларнинг соғлом ўсишларида ҳам муҳим аҳамият касб этади, чунки инсон касалликларининг сабаби инсондан ташқарида эмас, унинг ичида яширинганлигини англай бошлашади. Дарснинг муқаддимасида инсон ўраб турган оламини қандай қабул қилиши, унинг тақдирини ўзи яратиши ҳақида тушунча бериб, уларни ҳар қандай чекловларга, қобикқа солиб қўймаслигимиз зарур.

Ер юзида бармоқ излари бир хил бўлган иккита одам йуқ. Шунингдек ҳаётий тажрибаси бир-бирини тўла такрорлайдиган иккита одам ҳам йўқ. Ҳатто бир тухумдан чиққан эгизакларнинг ҳаёти ҳам нимаси биландир фарқ қилади.

Бошқача қилиб айтганда, ҳар бир бола ўз оламида яшайди ва ўз бетакрор оламини яратади. Биз катталар, ота-оналар фарзандларимизга дунё ҳақидаги ўз тасаввуримизни тавсия қиламиз, нима ёмон, нима яхшилигини, нима қилиш мумкин, нима қилиш мумкин эмаслигини тушунтирамиз ва натижада ўзимиз сезмаган ҳолда фарзандларимизга чеклашларни ҳосил қиламиз.

Катта ҳайвонот боғларидан бирига бир оқ айиқни олиб келганлар. У учун майдонча ҳали тайёр эмас эди ва у қурилгунча айиқ унча катта бўлмаган қафасда турган. Бир неча ой мобайнида у катак бўйлаб уч қадам бир томонга, уч қадам бошқа томонга ташлаб юриб турган. Ҳамма нарса тайёр бўлганда қафасни олиб қўйганлар, бироқ айиқ аввалгидай уч қадам бир томонга, уч қадам бошқа томонга ташлаб юрайверган.

Нейрофизиологик филтр бу кўриш, эшитиш, сезиш, ҳидлаш ва таъм билиш- биз улар ёрдамида моддий ҳодисалар оламидаги ахборотни кўрадиган ҳаммага маълум бешта сезги саналади. Бу филтр бизга туғилишимиздан берилган ва моддий оламини идрок қилиш ва яратишнинг филогенетик программасини ташкил қилади. Бу филтр бизни, инсон деб аталмиш мавжудотларни, алоҳида бир тур аъзолари сифатида бирлаштириб туради.

Ижтимоий филтр- ижтимоий кўрсатмалар бизга ўзимиз мансуб бўлган ижтимоий



гуруҳ тўплаган бутун тажрибадан фойдаланишга ёрдам беради. Бироқ улар чеклашни ҳам пайдо қилади: бизга бошқа ижтимоий гуруҳга (тил, миллат, урф-одат, маросимлар, халқ ва давлат тарихи ва бошқалар) мансуб одамни тушуниш қийин бўлади. Тажриба шуни кўрсатадики, ижтимоий чеклашларни осон енгиб ўтиш мумкин. Буни бизнинг бир неча тилда сўзлаша олиш қобилиятимиз тасдиқлайди.

Индивидуал филтр -аста-секин, инсон индивидуаллигининг ривожланиши ва шаклланишига қараб . яъни туғилган пайтимиздан бошлаб ривожланади. Бу - фикр, туйғуларимиз, феъл-атворимиз хусусиятлари, одат, қизиқиш, ниманидир ёқтиришимиз ва ёқтирмаслигимиз, у ёки бу воқеадан таъсирланишимиз, ўзимизга, яқин кишиларимизга, умуман одамларга ва бу оламдаги кўпгина нарсаларга муносабатимиз.

Бола бу оламга келганидаёқ, унинг онг остида программанинг биринчи элементи -нейрофизиологик аппарат мавжуд бўлиб, бола унинг ёрдамида Воқеликни ўзлаштиришга тайёр бўлади.

Программанинг иккинчи-ижтимоий элементи боланинг туғилган жойи (оила, мамлакат) томонидан белгиланади.

Учинчи -индивидуал элемент аста-секин, ўрганиш жараёнида шаклланади. Худди ана шу учинчи жараёнда педагог-психолог ўқувчини тўғри томонга оғишмай вояга етиши учун психологик жараёнларни олиб бориши лозим. Бунда ўқувчиларга соғлом фикр юритишни тарғиб қилиш зарур. Одам хафа бўлса-бошқа кишига вайрон қилувчи фикр узатса, бу унга оғриқ ва азоб бўлиб қайтиши, муҳаббат изҳор қилса- яратувчи туйғу юборса, бу унга қувонч ва муваффақият кўринишида қайтиши ҳақида тушунча бериш лозим. Ушбу тушунчаларни ўзлаштирган ўқувчи атрофидагилар билан муносабат ўрнатганда, ўзининг ўзига нисбатан жавобгарлигини ҳис қилади, яъни устози айтган "Ўхшаш ўхшашини тортади" иборасининг маъзани чақиб, унга риоя қилади. Болага одамнинг ичдан ижобий тарафга ўзгара бошласа, ҳеч қачон соғлиғи бўйича муаммо бўлмаслиги, атрофида уни қуршаган одамларга ижобий таъсир қилувчи ўзига хос макон яратиши тўғрисидаги фикрларни сингдиришимиз лозим. Зеро тақдиримиз-фикрларимиздир!

Айниқса ўтиш даврида тарбиясида оғишиш белгилари кўринаётган ўқувчилар билан алоҳида суҳбатлар ўтказилиб, ниятларимиз тозалиги учун қайғуриш, соғлиғимиз тўғрисидаги қайғуришимиз демакдир деган фикрларни уларнинг онгига сингдиришимиз лозим. Бу билан психолог ўқувчининг соғлом турмуш тарзини кечириши ва соғлом фикр юритишига туртки бера олади. Тренинг самарали ва сифатли ўтилганда, ўқувчиларда қуйидагича фикрлар пайдо бўлади:

1. Бугуноқ бор нарсанинг ўзига мослашишга ҳаракат қиламан ва ҳамма нарсани ўз хоҳишларимга мослаштиришга уринмайман. Ота-онамни, ўқитувчиларимни ва синфдошларимни улар қандай бўлса, шундайлигича қабул қиламан. Ўзимни мактаб қонун-қоидаларига мослаштираман.

2. Шу бугундан вужудимга ғамхўрлик қиламан. Жисмоний тарбия билан шуғулланаман, унга эътибор кўрсатиб тўйинтираман. Ундан нотўғри фойдаланмайман ёки нафратланмайман.

3. Бугундан бошлаб ақлимни ривожлантиришга ҳаракат қиламан. Биронта фойдали нарсани ўрганаман. Ақлий ялқовликка берилмайман. Саъй-ҳаракат. Мулоҳаза ва эътиборни талаб этувчи китобни мутолаа қиламан.

4. Шу бугуноқ барча йўналишларда руҳимни чиниқтираман. Мен ҳеч ким билмайдиган тарзда кимгадир яхшилик қиламан.

5. Бугуннинг ўзидаёқ пок ниятли бўламан. Кўлимдан келганча ораста юраман, паст овозда гапираман, ўзимни яхши тутаман, кўпроқ дўстларимни мақтайман,



ҳеч кимни танқид қилмайман.

Бундай фикрларни ўзида мужассамлаштириб вояга етаётган бола келажакда маънан етук, ватанига, халқига чин дилдан хизмат қиладиган фарзанд бўлиб вояга етади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Валерий Синелников "Дардингни сев" Тошкент "Наврўз" нашриёти 2019
- 2.Валерий Синелников "Ният кучи" Бухоро нашриёти 2015
- 3.Дейл Карнеги "Беташвиш яшаш сири" Тошкент "DAVR PRESS" НМУ 2014
- 4.Поль Брэгг "Асаб кучи" "MERIYUS" Тошкент 2013



## АЛОҚА ТАРМОҒИНИНГ ИШЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УМУМЛАШТИРИЛГАН МЕЗОНИ

**Мирзаева Малика Бахадировна**

**Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети  
катта ўқитувчиси**

**+998998814040**

**alimali9666@gmail.com**

*Аннотация. Танланган мезонлар бўйича алоқа тармоғининг ишлаш самарадорлигини баҳолашни амалга оширишга имкон берадиган мақсадли функция (умумлаштирилган мезон) синтезланган.*

*Калит сўзлар: самарадорлик, алоқа тармоғи, самарадорлик мезонлари*

Мақолада таъкидланганидек [1], алоқа тармоқларининг самарадорлигини баҳолаш тизимли тадқиқотларнинг кенг доирасидаги қуйидаги асосий масалаларни бажаришда қўлланади:

- алоқа тармоғининг функционал вазифаларини бажариш имкониятини баҳолаш;
- тармоқнинг идеал ишлашга нисбатан ишлаш самарадорлигини баҳолаш;
- бошқариш алгоритмларини тузатиш;
- янги тармоқларни яратишни асослаш ва бошқалар.

Одатий ёндашув ушбу санаб ўтилган масалаларни ечишга тармоқларни алоҳида параметрлар бўйича таққослайди. Лекин бундай ёндашув фақат айрим хусусий ҳолларда, масалан, иккита тармоқни таққосланганда ва улардан бири барча параметрлар (ёки кўпчилик параметрлар) бўйича иккинчисида устун бўладиган ҳолларда қониқарли натижаларга олиб келиши мумкин.

Умумий ҳолда, бир неча тармоқлар таққосланганда, улардан ҳар бири параметрлар тўплами орқали тавсифланади ва битта параметр бўйича яхши бўлган тармоқ бошқа параметр бўйича ёмон бўлганда кўрсатилган ёндашув мақсадга эришиш - энг яхши вариантни танлашга имкон бермайди.

Шунга кўра, тармоқнинг самарадорлигини тўлиқ характерлайдиган битта сонли қиймат кўринишида тармоқни баҳолаш умумлаштирилган мезонига эҳтиёж туғилишига олиб келади. Тизимли ёндашувда намоён бўлувчи бундай баҳолашни шакллантириш алоқа тармоғининг ҳар томонлама, комплекс кўриб чиқилиши билан ажралиб туради. Тизимли ёндашувнинг ўзига хослиги, аввало, баҳолаш алоҳида олинган мезонлар бўйича эмас, балки мезонлар тўплами бўйича ўтказилишида намоён бўлади.

Шундай қилиб, тизимли ёндашишнинг мазмуни барча параметрларни қамраб оладиган ва тармоқнинг турли функционал вазифаларни бажариш қобилиятини акс эттирадиган шаклда самарадорликни баҳолашни конструкциялашдан иборат.

Самарадорликни баҳолашнинг умумлаштирилган мезонини конструкциялашда функционал вазифалар деганда тизимнинг алоҳида сифатларини таъминлаш бўйича вазифаларни тушуниш керак бўлади. Алоҳида функционал вазифаларнинг бўлиши тизимнинг барча  $(\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n)$

параметрларини мос функционал масалаларни бажарилиши сифатини акс эттирадиган  $(\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_k)$





параметрлар гуруҳига ажратишга имкон беради.

Ҳар бир функционал вазифага қўйилган мақсадларга эришиш даражасини характерлайдиган маълум мақсадли функция мос қўйилиши мумкин. Жуда содда ва шу билан бир вақтда мослашувчан баҳолаш, тизимнинг параметрларини оғирлиги йиғиндиси бўйича асосланмаган баҳолаш ҳисобланади [2].

$$\sum_{n=1}^N c_n * \alpha_n$$

бу ерда  $N$  – нисобга олинадиган параметрлар;

$c_n$  – оғирлик коэффициентлари;

$\alpha_n$  – параметрлар.

Бу баҳолаш [1] ишда кўрсатилган талабларни етарлича тўлиқ қониқтиради. Фақат баҳолашнинг объективлигига талаблар махсус кўриб чиқилиши керак бўлади. Ҳақиқатан, вазн коэффициентларини танлашда субъективизмнинг қандайдир улушига йўқ қўйилади. (1) баҳолашнинг камчиликларига яна чизиқли шаклни киритиш мумкин, чунки ночизиқли боғлиқликлар алоҳида параметрларнинг таъсирини аниқроқ акс эттира олади.

Сўнги вақтларда таклиф этилган ночизиқли баҳолашлар орасидан зарур талабларга позином кўринишидаги баҳолаш етарлича тўлиқ жавоб беради [3]:

$$\gamma = \prod_{n=1}^N \alpha_n^{c_n}$$

бу ерда  $\alpha_n$  – тизимнинг параметрлари;

$c_n$  – оғирлик коэффициентлари.

Лекин алоқа тармоқларининг ишлаш самарадорлиги танланган қийматларини (2) формулага тўғридан-тўғри қўйиш тадқиқ қилинадиган алоқа тармоғининг самарадорлиги ҳақида тўлиқ тушунчани бермайди. Шунга кўра, (2) формулада  $\alpha_n$  кўрсаткичлар ўрнига у ёки бу мезонни талаб қилинадиган қийматларга мос келиши даражасини акс эттирадиган  $R_j$  қийматлардан фойдаланиш керак бўлади. Бундай катталиклар қуйидагилар ҳисобланади:

$$R_1 = T_g^*/T_g; \quad R_2 = H/H^*; \quad R_3 = 1 - \frac{|P_{\text{хато}}^* - P_{\text{хато}}|}{P_{\text{хато}}^* + P_{\text{хато}}},$$



бу ерда  $H$ ,  $H^*$  - мос равишда алоқа тармоғининг ҳисобланган ва талаб қилинадиган ишончилилик кўрсаткичлари;

$Tg$ ,  $Tg^*$  - мос равишда алоқа тармоғининг ҳисобланган ва талаб қилинадиган хабарни етказиш вақти қийматлари;

$R_{хато}$ ,  $R_{хато}^*$  - мос равишда алоқа тармоғи бўйича хабарларни узатиш хатоликлари ҳисобланган ва талаб қилинадиган эҳтимолликлари

$R_1$  катталиқ исталган қийматни қабул қилиши мумкин.  $R_2$  қийматлари бирдан ошмайди, чунки функционал ишончилилик кўрсаткичи максимал бўлиши мумкин юкламага мўлжалланган.  $R_3$  учун ифода у бирдан катта бўлмайдиган тарзда танланган, яъни ҳам  $R_{хато} < R_{хато}^*$ , ҳам  $R_{хато} > R_{хато}^*$  носамарадор ҳисобланади. Бу  $R_{хато} < R_{хато}^*$  бўлганда тармоқ бўйича хабарларни кечикишини ортишига олиб келадиган ортиқчалик ёки заҳира частотаишлатилишига ёки сигнални ортиқча қувватда узатиш амалга оширилишига боғлиқ.

Юқорида айтиланлардан келиб чиқиш билан тадқиқ қилинадиган алоқа тармоғининг ишлаш самарадорлиги умумлаштирилган мезони сифатида қуйидаги позином таклиф этилади:

$$R_{\text{умум}} = R_1^{c_1} * R_2^{c_2} * R_3^{c_3}$$

Шундай қилиб, танланган мезонлар бўйича алоқа тармоғининг ишлаш самарадорлигини баҳолашни амалга оширишга, бошқача айтганда, алоқа тармоғининг ишлашини фойдаланувчилар алоқа тармоғининг ишлашига қўядиган талабларга мос келишини аниқлашга имкон берадиган мақсадли функция синтезланган.

#### Адабиётлар

1. Мирзаева М.Б. К вопросу оценки эффективности функционирования сетей связи. "Муҳаммад ал-Хоразмий авлодлари" Илмий-амалий ва ахборот-таҳлилий журнал. № 2(8) Тошкент-2019 й. -Б. 50-53

2. Окунев Ю.Б., Плотников В.Г. Принципы системного подхода к проектированию технике связи. -М: Связь, 1976. -стр.184.

3. Количественная оценка эффективности систем связи на основе использования позинома. Труды. Института связи. -Л.: ЛЭИС, 1974. Выт.67. стр.20-28



## ГУРУҲЛИ ФИЛЬМ-ПОРТРЕТЛАР ХУСУСИЯТЛАРИ

**Исмаилов Камолиддин Саидахмадович**

**ЎзРФА Санъатшунослик институти мустақил изланувчиси (PhD)**

**тел: (97) 735-76-01, arricam33@mail.ru**

### *Аннотация*

*Ўзбек ҳужжатли киносида фильм-портрет жанри сўнги даврларда сермахсул жанрлардан бирига айланди. Яратилган фильмлар қаторида бир неча гуруҳли (групповой) фильм-портретлар учрайди. Бу турдаги фильмлар ҳақида жуда кам ёзилган бўлиб, қуйида уларнинг айрим ўзига хос хусусиятлари ҳақида сўз боради.*

*Калит сўзлар: ҳужжатли, фильм-портрет, интервью, монолог.*

Ўзбек ҳужжатли киносида фильм-портрет жанри 1990 йилларга келиб ўзининг янги қирраларини номоён эта бошлади. Агар эътибор қилсак, сўнги 30 йил мобайнида тарихий мавзудаги фильмлар ҳар қачонгидан ҳам ортганлигини кўришимиз мумкин. Шу билан бирга фильм-портрет жанри барча замон ва барча соҳа илғорларини ҳам ёритиб келмоқда [1, 30].

Бугунги кунгача яратилган фильм-портретлар қаторида гуруҳли фильм-портретлар сарасига кирувчи бир неча ҳужжатли фильмлар учрайди. Масалан, "Улар Германияда ўқиган эдилар" (1998), "Умид қалдирғочлари" (1998), "Аёл қадри" (2011), "Олтин бешик адабиёти" (2012), "Боғбон бўлсанг боғ ярат" (2014), "Чемпионлар оиласи" (2014), "Киномусаввир" (2017) каби бир неча фильмларни мисол қилиш мумкин.

Гуруҳли фильм-портретларнинг ижодий имкониятлари кенгроқ ҳисобланади. Бундай фильмларда бир эмас бир неча қаҳрамон қараши орқали ягона, умумий бўлган умумлашган образ яратилади. Шу билан бирга бир фильмдаги турли қаҳрамон қарашлари томошабинда эмоционал конфликтни пайдо қилиши мумкин. Бу ҳолат фильмни қизиқарлигини янада оширади. Фильмдаги бир неча қаҳрамонларнинг турлича қарашлари ва образлари ижтимоий муҳитни кенгроқ ифодалашга ҳам ёрдам беради.

Гуруҳли фильмлар қаҳрамонларини икки асосий турга бўлиш мумкин. Биринчи турда қаҳрамонлар бир-бирини танишмайди ва ҳар бири ўзининг функционал ўрнига эга. Иккинчи турда қаҳрамонлар бир-бирини яхши билишади, улар бир жойда яшаши, ишлаши, ўқиши, мақсадлари бир нуқтага қаратилган бўлиши мумкин. Масалан, жадид маърифатпарварларига бағишланган "Улар Германияда ўқиган эдилар" (реж: Ш.Маҳмудов, 1998) фильмида қаҳрамонларнинг қарашлари ва мақсадлари бир, конфликт эса қатағон машинаси билан боғлиқдир. Ушбу фильмга "Умид қалдирғочлари" (реж: Ф.Шукуров, 1998) фильмини ўхшашлигини кўраимиз. Фильм чет элларда таҳсил олиш учун "Умид" жамғармаси томонидан юборилган талабаларнинг қувонч ила таҳсил олишлари, талабалардан кутилаётган орзу умидлар, уларнинг порлоқ келажаги ҳақида сўзлайди. Бу фильмда биринчи фильмдаги каби қаҳрамонларнинг зиддиятли вазиятлари бўлмасада, уларнинг порлоқ мақсадлари йўлидаги ҳаракатлари сюжетни ушлаб туради [2, 45].

Гуруҳли фильм-портрет яратишнинг мантиқан маълум бир сабаби бўлмаса ўзини оқлай олмайди. Фильмдаги бир неча қаҳрамон ягона гоёни очиб беришга ҳизмат қилиши ёки бири иккинчисининг характерини очилишида рол ўйнаши лозим. Бу жараёнда қаҳрамонлар бир-бирларини қанча яқиндан билсалар шунча яхши. Масалан, "Олтин бешик даври адабиёти" (реж: Т.М.Юнусов, 2012) фильмида шоир ва шоиралар Амир Умархон, Жаҳонотин Увайсий, Моҳларойим Нодиралар



образи яратилган. Фильм қаҳрамонлари бир-бирларини яхши билишади, улар ҳаёти ўзаро боғланиб кетган. Буни тўғри англаган режиссёр қаҳрамонларни аксарият ҳолатларда биргаликда тасвирлашга ҳаракат қилган. Улар ўз ёзган шеърларини бир-бирларига ўқиб берадилар, ўзларининг илиқ муносабатларини билдирадилар. Натижада ҳар бирининг маълум образи пайдо бўла бошлайди.

Гуруҳли фильм-портретларда қаҳрамонлар кетма кет ёки параллел равишда номоён бўлиши кузатилади. Ушбу ҳолатни режиссёр доим ҳам бошқара олмаслиги мумкин. Лекин "Олтин бешик даври адабиёти"да ундай эмас, фильмнинг бошиданоқ қаҳрамонлар биргаликда тасвирлансада, режиссёр уларни кетма кет таништиришга ҳаракат қилади. Бу усул орқали қаҳрамонлар дунёсини чуқурроқ ва тартиб билан ёритишга эришган.

Параллел ёритиш усулида эса қаҳрамонлар образи қоришади, бир-бирини тўлдирга бошлайди, ҳар бирининг сифатлари айнан қоришиш натижасида очилиб боради. Масалан, маърифатпарвар олим Сайид Ризо Ализода ҳақидаги "Моварауннаҳр фарзанди" (реж: М.Одилов, 2017) хотира фильм-портретида воқеалар набираси Фарход Ализода томонидан ёритилиб борилади. Набирасининг интервьюлари ва ҳатти ҳаракатлари давомида ўзининг характери ҳам очила бошлайди. Натижада режиссёр кутмаган бир ҳолатда Фарход Ализоданинг ҳам портрети пайдо бўлади.

Мана шундай "портрет ичидаги портрет" усулидаги фильмлардан, Навоийшунос олима Сўйима Ғаниевага бағишланган "Йўл" (2014) фильмини ҳам мисол қилиш мумкин. Фильмда Сўйима Ғаниеванинг эҳтиросли монологлари орқали Алишер Навоий образи гавдаланган. Муаллиф Эшқобил Шукуров, қаҳрамон образини ҳазрат Навоий ижоди йўлидаги изланишлари билан боғлаган ҳолда очиб берган.

Бу каби фильмлар мисолида шунга айтиш мумкинки, гуруҳли фильм-портретлар ўз хусусиятлари билан қаҳрамонлар образини ва даврлар муҳитини оқилона ҳолатларда, янада ишончли қилиб томошабинга етказиш имкониятига эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Тешабаев Ж. "Фильм-портретлар" Ўзбекистон ҳужжатли киноси. Мақолалар тўплами. ЎзРФА. Т., 2008, 30 б.

2. Ҳасанов А. "Мустақиллик давридаги ҳужжатли кино" Ўзбекистон ҳужжатли киноси. Мақолалар тўплами. ЎзРФА. Т., 2008, 45 б.



## COMPOSER SCHOOLS IN UZBEKISTAN (An example of the work of composer B.B.Nadejdin)

**Muyassar Achildiyeva**  
Teacher of the Department of  
"Choral conducting and singing" at  
Margilan pedagogical college.

Tel: (91) 3970088

**Bekhzodbek Tursunboyev**  
The State Conservatory Uzbekistan,  
2nd year student of "Composing art".

Tel: (91)6717936

behzodbek.3005@gmail.com

*Annotation: In this article there are written thoughts and comments about talented pedagogue, composer Boris Borisovich Nadejdin who contributed his scientific creative to develop composing schools.*

*Key words: folklore, professional music, composing art, composing school, teacher-student tradition.*

"Only music has the power to form human character,  
people can learn to feel right themselves  
and improve with help of music.

**Aristotle.**

It is known from history Uzbek music art had been dealing with musical-theoretical sciences bot folklore creativity and professional music on the basis of composing art which are sharpened during the ages besides that with the other musical industry. In the palace music there were sung to composing creativity music folklore which are popular and know for all are sung for wide public.

At the end of XIX century and at the beginning of XX century there were accomplished deep reforms in music art. Foreign musicians, theatre trupps and comosers presented their music works in order to learn music art of Central Asia, specially our homeland's national music.

This process researched the appearance of different creativity types and music genres in our music art. In 20-30 years of XX century composing art which was one of the Western music arts creativity types came to our music art. According linguist to meaning of this word, (lat.- composer - "creator") creator of many sounded music work.

The term composer was spread over the Italy in XVI century. It is required musical creative ability with thoughtful accuracy and thorough education and oualification in the sphere of the special composition subject from creators of these profession.

Composer creates musical work through note recording and tries to express new individual artstic signification. It differs from monodial creating composers. In coming of this tupe of art to Uzbekistan the services of popular Russian composers who worked in our country.

Composing creativity in Uzbekistan was developed rapidly in activity of V.A.Uspenskiy, G.Mushel, A.F.Kozlovsky, B.B.Nadejdin, R.M.Gliere, B.Zeidman, B.Gienko. With the help of these peoples creative and pedagogical activities there were appeared local composers generation after another in our country such as M.Ashrafy, T.Sodikov, M.Burkhonov, M.Leviev, S.Yudakov. The composing school serviced as important



factor to bring up local composers. Organising of Turkistan public Conservatory (1918 year), Higher music school 1934, Tashkent conservatory in 1936 year from 2002 Uzbekistan state conservatory was important base for bringing up national composers.

It is permissible to emphasise the affairs of popular composer Boris Borisovich Nadejdin (1905-1961) who brought up elite of composing school, he was one of the devoted people who helped to educate Uzbek composers not only with pedagogical side. He is the distinguished prominent figure of art in Uzbekistan and the teacher of Uzbek composers. The composer didn't take pity from his student till the end of his life. B.Nadejdin commemorated his all power and to creative and work activity. He disliked tasteless, non-professionalism in education process of composers.

In teaching composing methodology made some rules and requirements for students. "Composers should be brought up to be near modern listeners requirements".

I. General rules and requirements for students: 1)

Connection with people melody. Accessibility, expressionism, confidence, future brightness of topic's language natural.

2) Harmony of melody and harmonic language (complexity of in Uzbek music breaking of principles in Europe music).

3) In voice of musical instrument.

II. Class work planning according to followings.

1) Program requirements.

2) What can do students. (real opportunities)

3) What should. Student do in order to eliminate his defects.

III. Literature.

1) Learning Russian and Western Europe music, digesting technics and traditions.

2) Listening comprehension (books, concerts, independent singing or playing, playing with 4 hands)

IV. General fortepiano.

1) Digesting musical instrument.

2) Playing note with reading from paper.

3) Acquainting with different methods.

V. Concerts, discussing.

B.B.Nadejdin is selfless person who educated many Uzbek composers. He directed composers to independent musical creativity such as I.Akbarov, V.Meen, Pak Endin, B.Gienko, G.Sobitov, I.Hamroev, G.Kodirov, S.Boboev, Yu.Nikolaev, Kh.Izomov, A.Muhammedov, S.Varelas, V.Zudov, H.Rahimov, A.Berlin, S.Haitboev, F.Yanov-Yanovsky, M.Yusupov, Ye.Shwartz, T.Kurbonov. These composers who were mentioned above contributed massively to Uzbek music art especially, composing creativity. In this case the tradition teacher-student of Uzbek composing creativity schools serves. As important factor educating or composer in summarisingly, real creativity education. Requires responsible actions scientific and creative in any time. For that, all experience of creators helps effectively.



Literature:

1. Explanatory dictionary of terms of culture and art/ Editor: A.Umarov, M.Bekmuradov, B.Sayfullayev. Tashkent:.2015
2. R.Qodirov.Music pedagogy. (Short course). Tashkent:.2016
3. A.H.Jabborov. Composers and musicologys of Uzbekistan. (Reference book). Tashkent:.2004
4. O.Abdullayeva. Composing art. (Textbook). Tashkent:.2018
5. Issues of composer creativity in Uzbekistan. (Proceedings of the scientific conference). Tashkent:.2018



## **МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (Ўзбекистон композиторлари ижоди мисолида)**

**Муяссар Ачилдиева,  
Дилшодахон Аҳунжонова -  
Марғилон педагогика коллежи  
"Хор дирижёрлиги ва хонандалик"  
кафедраси ўқитувчилари  
Телефон.: +998(91) 3970088**

*Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон композиторлари ижодидаги муסיқий саҳна асарларининг айна даврдаги ижрочилик муаммолари ҳусусида муаммолар келтиради. Айна даврда юзага келаётган ижрочилик амалиётидаги камчиликлар юзасидан фикр мулоҳазалар ва уларнинг ечимлари тўғрисида фикр юритилади.*

*Калит сўзлар: Маънавий-муסיқий мерос, халқ муסיқаси, муסיқий тил, композиторлик ижодиёти, муסיқий оригинал асар, муסיқий қатлам, композиторлик мактаби.*

Барчамизга маълумки, юртимизда айна даврда фаолият олиб бораётган опера ва балет театрлари ҳамда муסיқали театрларнинг ойлик репертуарига назар ташлайдиган бўлсак, аксарияти жаҳон муסיқа санъатида ўзининг бебаҳо асарлари билан ҳисса қўшган ижодкорларни яъниким, композиторлар асарларни кўришимиз мумкин. Воҳоланки, ўзбек композиторларимизни асарлари ҳар қайси театрларда ҳам концерт залларида мунтазам ижро этилавермайди. Айнақса, Алишер Навоий номидаги опера ва балет театрининг ижро репертуари кўпинча барчамизга яхши таниш бўлган асарлар киритилган. Бу яхши ҳолат албатта. Лекин, ижро репертуарини янгилаб бориш ва ҳозирги даврда ижод соҳасида тинмай меҳнат қилиб келаётган устоз композиторларимиз ва уларнинг композиторлик мактабида таълим ва тарбия кўраётган ёш истеъдод соҳибларининг асарларини намойиш қилиш фурсати келмадими? Халқимиз муסיқа ва санъатни қадрлашини, миллий муסיқамизни бутун вужуди билан ҳурмат билан муносабатда бўлиши бизни шубҳасиз қувонтириши табиий. Аммо, ижрочиларнинг миллий анъаналаримиз руҳида ёзилган асарларга муносабати талаб даражасида эмаслиги бизни бироз бўлсада, таажжубга солиб қўйади. Буни театр ва концерт залларида жаранг сочаётган муסיқий асарларни томоша қилиш мақсадида кираётган томашабинлар ҳам фикримизни тасдиқлайди.

Юқоридаги билдирилган фикр ва мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда айна даврда ижод соҳаси вакиллариининг муסיқий саҳна асарларининг ижрочилик муаммолари ҳусусида бироз тўхталмоқчимиз. Бинобарин, композиторлик ижодиётининг муҳим тармоқларидан ҳисобланган опера ва муסיқали драма жанри буйича оладиган бўлсак, биргина Ўзбекистон санъат арбоби, ASCAP (Америка композиторлари ва ноширлари асоциацияси) аъзоси, композитор, дирижёр, педагог Мустафо Бафоев асримизнинг отахон композиторларимиз ичида серунум ижод қилиб келаётган ижодкорларидан бири сифатида эътироф этилади. Ижодкорнинг XXI асрда яратган мураккаб жанрлардан бири ҳисобланган опера соҳаси буйича қатор муסיқий асарлар яратди. Алишер Навоий асари асосида "Хамса" (С.Олимов либреттоси, 2017), Садриддин Айний номидаги Тожикистон академик опера ва балет театри учун "Шайхурраис Абу Али Ибн Сино" (К.Олимов либреттоси, 2011), "Борбад" (Н.Қосим либреттоси, 2014) операларини алоҳида эътиборга молик. Ушбу асарларни тинглаган ҳар қайси ижодкор ёки тингловчи





композиторнинг ижодкорлик маҳоратига тасанно айтмасдан қолмайди. Чунки, ушбу асарлар қалбнинг майин торлари ила куйга кўчган фалсафий асарлар саналади.

Забардаст ижодкор, давримизнинг мусиқамиз билимдонларидан бири ҳисобланган ўзининг мусиқий асарлари билан тингловчиларнинг қалбидан муносиб ўрин эгаллаган юксак истеъдод соҳиби Мустафо Бафоевнинг "Хамса" операси ижрочилик муаммоларига назар ташлайдиган бўлсак, театр чолғучиларининг ёки ижрочиларининг ижроси чинакам муҳлисни кўнглига хузур бермаслиги мумкин. Айниқса, саҳна марказида ижро этилаётган ариялар ва речитативлардаги ижро камчиликларини ўрнида бартараф этиш лозим. Ижрочиларнинг мазкур асар мазмунидан боҳабар бўлиши лозимлиги ҳамда асар драматургияси нуқтаи назаридан келиб чиқиб, ўз навбатида миллий академик ижрога эришиш даркор. Симфоник оркестр чолғу созларининг ижросини ҳам ижобий баҳолаб бўлмайди.

Мусиқий партитурада баён этилган образларнинг мусиқий лейтмотив мавзулари ижодкор назари билан ифодаланса мақсадга мувофиқ бўлади. Оркестр чолғучиларининг ижро сифатини яхшилаш ва ансамбль тарзда бир-бутун ижро қилиш керак. Саҳна давомида янграётган ария ва речитативларнинг мусиқий қатлами ҳам аниқ равишда тугал садоланиши ҳамда саҳна ижрочиларидан талаб этилаётган муҳим талаблардан бири образ қонуниятларини ва академик миллий ижрони ўз ўрнида мукамал ижро қилиш фойдали бўлади. Бунинг учун миллий мусиқа санъатимизда ўзининг соҳир овозлари билан бутун дунёга ўзбек опера санъатини юксакларга кўтарган Муҳиддин Қори Ёқубов, Халимаҳоним Носирова, Карим Зокиров, Саттор Ярашев, Саодат Қобулова сингари ижрочилар қўллаган ижрочилик мактаби асосларига тайянган ҳолда олиб бориш, улар ижросида ёзиб олаётган грампластинка ёзувлари, магнит ленталарини эшитиб кўриш ва ҳар томонлама қиёсий таҳлил этиш айна даврда ижрочилик соҳасида юзага келаётган муаммоларга оз бўлсада ёрдам бериши мумкин.

Дарҳақиқат, биз айнан опера жанри бўйича ижрочилик муаммолари нафақат ушбу соҳада балки бошқа мусиқий жанрлар ижрочилик амлиётида юзага келаётган ҳолатдир. Масалан, мусиқали драма театрларда намоёиш этилаётган мусиқий саҳна асарлари киши руҳиятига ижобий таъсир этишига бир томондан ижро сифати муҳим аҳамиятга эга. Инсон қалбига йўл топишнинг энг осон йўллари билан бири сифатида мусиқани киритишимиз мумкин. Шунини таъкидлаб ўтиш керакки, мусиқа инсонни манъаний-эстетик жиҳатдан тарбиялаб, ҳаётга бўлган қизиқишини ортишига хизмат қилади. Республикада театрларининг аксариятида намоёиш этилаётган мусиқий саҳна асарларининг ижро сифати талаб даражасида эмаслиги бизни бу борада бироз мушоҳада қилишга ундаши табиий. Мусиқали театрлардаги мавжуд муаммолардан бири бу - ижрочи ва оркестр чолғучиларининг ижросининг тингловчи талабларига жавоб бермаслиги ҳамда мусиқий техник воситаларининг яъни овоз кучайтирувчи асбобларни мавжудларини сошлаш ёки янгилаш лозим.

Мусиқали театр хонандаси томонидан ижро этилаётган ария ёки кўшиқнинг тингловчиларга паст овозда етиб келиши, мазкур жанрда яратилган асарнинг ижросининг бузилиши, овоз ва оркестр ижросининг номутаносиблиги ҳоллари ҳам айна кунларда аҳён-аҳёнда кузатилмоқда. Мазкур ҳолатда диққат эътибор биринчи навбатда дирижёрнинг ижодий тажрибаси муҳим аҳамиятга эга. Ўз ўрнида мавжуд камчиликларни йўқотиш чоралариш кўриш ва чолғучилар билан соғлом муносабатни таъминлаши муҳимдир. Чунки, мусиқий саҳнавий асар давомида чолғу ижрочилар ўртасида яхлитлик тизимини албатта дирижёр бажаради. Агар асарда дирижёр композитор томонидан кўрсатилган мусиқий ифода воситалари, маълум чолғу созларининг ижро этиши кетма-кетлик асосида ўз ўрнида ижрочиларга кўрсатилмаса, асарнинг ижросига салбий таъсир кўрсатади. Бу борада



театр арбоблари ва театршуносларнинг қимматли маслаҳатларига таянган ҳолда улар билдирган маслаҳатлари бу муаммоларни ҳал қилишга ёрдам бериши мумкин.

Юқоридаги таъкидлаб ўтилган муаммоларни айна даврда бартараф этмасак, қатор муаммолар юзага келишига олиб келишига замин яратади. Ижрочилик муаммолари ҳар қайси соҳада бўлмасин ўз долзарблигини ва аҳамиятини йўқотмайди. Мусиқий танқидчиларнинг бу борада янада илмий-амалий ишларини такомиллаштириши ҳамда мазкур ҳолатлар юзасидан фикр ва мулоҳазаларини атрофлича таҳлил қилиши даркор.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. А.Умаров, М.Бекмуродов. Маданият ва санъат атамаларининг изоҳли лугати. Тошкент:.. 2017.

2. Ўзбекистон композиторлик ижодиёти масалалари. (Илмий-амалий анжуман маърузалар тўплами). Тошкент:.. 2018.

3. А.Жабборов. Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари. (Маълумотнома). Тўлдирилган 2-қайта наشري. Тошкент:..2018.

4. Р.Абдуллаев. Опера драматургияси. (Ўқув қўлланма). Тошкент:..2007.



## MUSIQA SAN'ATIDA KLASSITSIZM OQIMI

**Ahunjonova Dilzodaxon,  
Oripova Sanobarxon  
Marg'ilon pedagogika kolleji  
"Fortepiano" kafedrasi o'qituvchilari  
Telefon: +998(93) 9835929.**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa san'ati oqimi klassitsizm davri haqida atroflicha ma'lumotlar bayon etiladi. G'arbiy Yevropa musiqa adabiyoti va san'atida qolaversa butun dunyodaga yoyilgan ushbu san'at oqimi rivojlanishi jarayoni va xususiyatlari maqolada aks etadi.*

*Kalit so'zlar: Klassitsizm, san'at, adabiyot, gamofon-garmonik, shakl, kuy, garmoniya, sonata, sonata-simfonik turkum.*

Klassitsizm XVIII asrda G'arbiy Yevropa adabiyoti va san'atida grek va rim adabiyoti va san'atiga taqlid qiluvchi oqim sifatida paydo bo'ldi. "Klassitsizm" so'zi lotincha bo'lib, "namunali" degan ma'noni bildiradi. Demak, klassitsizm antik merosga norma va ideal namuna, deb karashdan iborat uslub va yo'nalishdir. Klassitsizm 18 asrda adabiyot va san'atning barcha turlarida rivojlandi. XVIII asrda bu oqim burjua ma'rifatparvarligi bilan aloqador bo'lib, fuqarolik ideallarini, burjua-revolyutsion intilishlarni aks ettirdi. Klassitsizm falsafiy rasionalizm g'oyalariga, dunyo haqidagi oqilona qonuniyatlar, go'zal va nafis tabiat haqidagi tasavvurlarga tayanib, katta ijtimoiy mazmuni, ulug'vor, qahramonona va ahloqiy ideallarni ifodalashga intildi.

Obrazlarning mantiqiy, yorqin va garmonik birligiga erishdi. Musiqa san'atida klassitsizm ayniqsa keng rivojlandi. Vena klassik maktabi - musiqadagi klassitsizm rivojlanishining eng yuqori cho'qqisidir. Vena klassik maktabi deganda uch buyuk kompozitor - Gaydn, Motsart va Betxoven ijodi nazarda tutiladi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Avstriyaning poytaxti Vena shahrida musiqa san'ati juda tez sur'atlar bilan rivojlandi. Vena ko'p millatli shahar bo'lib, unda turli xalqlar musiqasi doim yangrab turar edi. Shu davrda bu shahar Yevropa musiqa madaniyatining markazi hisoblanar edi. Venada yashab ijod qilgan Gaydn, Motsart va Betxoven ijodida klassitsizm oqimi rivojlanishning eng yuqori cho'qqisiga etdi. Quvonch va tashvishlarga to'la hayot, insonning ichki dunyosi, xalq hayotidan olingan lavhalar va tabiat manzaralari bu kompozitorlar asarlarida o'ziga xos tarzda ko'rsatib berilgan. Gaydn, Motsart va Betxoven asarlarida doim shakl va mazmunning estetik birligini kuzatish mumkin. Bunda bosh omil doimo mazmun bo'lib, shakl uni yoritishga hizmat qiladigan vositadir. Chiroyli kuylar yaratish va garmoniyaning nihoyatda go'zal bo'lishiga erishish - Vena klassik kompozitorlariga xosdir.

Klassitsizm davrida musiqa yozish uslubi o'zgarib polifoniya (ko'p ovozli) uslubi o'rniga gomofon-garmonik uslub (kuy va garmoniya) rivojlandi. Klassik kompozitorlar asosan gomofon-garmonik uslubda asarlar yozgan bo'lsalarda, ko'p ovozli uslub ular uchun asosiy ifoda vositalaridan biri bo'lib qoldi. Motsartning polifonik mahorati bunga yorqin misoldir.

Gaydn tomonidan simfonik orkestrning yangi tarkibining ishlab chiqilishi nihoyatda muhim yangilik bo'ldi va bu klassik tarkib musiqa san'atining rivojlanishida katta rol o'ynadi. Klassik kompozitorlar ijodida turli kamer ansambllar trio, torli kvartet, kvintet uchun asarlar yaratildi. Yakka cholg'ulardan fortepiano uchun juda ko'p asarlar yozildi. Motsartning opera ijodi har xil turdagi opera asarlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Komik operalar, musiqiy dramalar, lirik operalar, ertak operalar bunga misoldir.

Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodida yuzaga kelgan muhim yangiliklardan biri



- sonata-simfonik turkum va sonata shaklining yaratilishidir. Hayotiy jarayonlarning jadal sur'atlar bilan o'zgarishini aniq his qilish, bu klassik shakllarning yaratilishiga olib keldi. Yakka cholg'u sozi uchun yoziladigan sonata, simfonik orkestr uchun yoziladigan simfoniya janridagi asarlar shu shakllarda yoziladigan bo'ldi. Sonata-simfonik turkum shakli uch yoki to'rtta alohida qismlardan iborat. Uch qisimli turkum quyidagi qismlardan iborat: sonatali allegro, sekin sur'atda chalinadigan qism, final.

To'rt qisimli turkumda sekin sur'atli qism va final o'rtasida menuet ham bo'ladi. Turkumning birinchi qismi sonatali allegro asosiy tonallikda yoziladigan bosh mavzu bilan boshlanadi. Unga butunlay boshqa obrazni ifodalovchi boshqa mavzu qarshi qo'yiladi. Uni yordamchi mavzu deyiladi. Bu ikki mavzu ko'p hollarda xarakteri bilan bir biridan farq qiladi. Yordamchi mavzu dominanta tonalligida yoziladi. Bu ikki mavzu o'rtasida bog'lovchi mavzu ham berilishi mumkin. Yordamchi mavzudan keyin yakuniy mavzu keladi.

Xulosa qilib aytganimizda, klassitsizm oqimi G'arbiy Yevropa musiqa madaniyatini rivojlanishiga qolaversa, cholg'u va simfonik asarlarning qaror topishiga olib keldi. Ushbu davrda musiqa san'atida amalga oshirilgan islohotlar yangi davrning shakllanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. А.Х.Тригулова. Хорийи musiqa adabiyoti. Toshkent:2009.
2. А.Альшванг. Людвиг ван Бетховен. М.: "Музыка", 1970.
3. Л.Новак. Йозеф Гайдн. М.: "Музыка", 1973.
4. А.Левик. Музыкальная литература зарубежных стран. М.: "Музыка", 1977.



## СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРТЕПИАННОГО КОНЦЕРТА Л. БЕТХОВЕНА

**Мафтуна Алимбаева**

**Педагог Бухарского академического лицея искусств**

**+998 91 248 71 07**

*Аннотация: Статья посвящена к изучению музыкального языка Бетховенских концертов, жанровых и стилистических особенностей, специфики выразительных средств. В материале рассматривается стилистические особенности фортепианного концерта Л. Бетховена.*

*Ключевые слова: Рохлиц, концерт, "модель" венского концерта, классический венский концерт*

Изучение музыкального языка Бетховенских концертов, жанровых и стилистических особенностей, специфики выразительных средств разучиваемого произведения составляют основу исполнительской интерпретации.

Оно предполагает анализ выразительных средств, которыми пользуется композитор для создания неповторимой формы одного отдельного сочинения. Культура исполнения Бетховенских концертов заключается в том, чтобы знать и понимать критерии, сложившиеся исторически, воплощающие собой преемственность времён и поколений. Он симфонизирует концерт и не нарушая жанровую специфику, наделяет его значением особого вида симфонии с солирующим инструментом фортепиано. Осуществил он эту реформу не сразу. В первых двух концертах ещё явственно ощутимо генетическая связь с моцартовским типом как наиболее совершенным творением художественной "модели" венского концерта 18 века; решающий перелом ознаменована Третьем концертом; найденное в нём развито в следующих двух. Суть бетховенской реформы заключалась в том что он возвысил концерт до уровня симфонии или говоря словами Рохлица, сделал его равноправным с симфонией выражений в возвышенного.

Это способствовало обновлению и содержания произведений и выразительных средств, и структурной закономерностей. Тем не менее связь с традицией не порвалась.

В основе жанра инструментального концерта лежит принцип соревнования, состязания между солистом и оркестровым коллективом: они словно оспаривают друг у друга первенство в непрерывном диалоге.

Принципы такого диалога оформилась в 17 веке в Италии. Развились разные виды сольных концертов- для смычковых или духовых инструментов. Позже к ним подключился клавир.

Его музыка присуща внутренняя конфликтность при последовательно логичном проведений главной идеи- сам композитор называл её поитической то есть содержательной. Конфликтностью пронизываются все элементы музыкальной речи что в первую очередь обусловлено сопоставлением формообразующих мотивов, которые взаимодействуют друг друга в процессе развития.

Преобразование формальных схем классического венского концерта продиктовано содержанием бетховенских творений, новизной выразительных средств. В фортепианном искусстве так важны произведения написанные в концертном жанре. Концерты великого немецкого композитора Л. Бетховена имеют решающее значение из за необходимости музыкального наследия. В книгах А.



Альшванга "Людвиг ван Бетховен. Очерк жизни и творчество" и Л. В. Кириллина "Бетховен. Жизнь и творчество" детали жизни и творчества описываются конкретными датами и событиями, и были сделаны полные монографии.

Культура исполнения Бетховенских концертов заключается в том, чтобы знать и понимать критерии, сложившиеся исторически, воплощающие собой преемственность времён и поколений.

Использованные литературы:

1. Р. Роллан . "Жизнь Бетховена". -Л., 1937.
2. А. Альшванг "Людвиг ван Бетховен. Очерк жизни и творчества". -М., 1970.
3. М. Друскин "Фортепианные концерты Бетховена". -М.,1973.



## TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

**Farmonova Guzal Farmonovna**  
**O'zDJTU 1-bosqich talabasi**  
**Telefon: 99899 520 03 22**  
**farmonovaguzal08@gmail.com**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda talabga mos tajribalar, shuningdek xorij metodlarini turistik kommunikatsiyalarga olib kirish orqali turistik jamiyatni oshirish haqida yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar : Turizm, Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot ( ISO ), turizm infratuzilmalari, biznes tarmoqlarining o'ri, turistik huquq- imkoniyatlar.*

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan.

Turizm - iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqoza etmoqda. Zamonaviy turizm istiqbollardan biri- noyob tabiiy maskanlar hisoblanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda ekoturizm eng rivojlangan yetakchi davlatdir. Yurtimiz boy hayvonot va o'simlik dunyosi, betakror landshaft manzarasi, milliy an'analar va taomlar oshxonasi bilan sayyohlar e'tiborini qozonib kelgan. Ugom-Chotqol Davlat milliy tabiat bogi, uning tarkibiga kiruvchi Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonalarida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Turistik safarlar sonining ortishi, jug'rofiyasining kengayishi, transport vositalarning rivojlanishi munosabati bilan xalqaro tashkilotlar, davlatlar va hukumatlarning diqqat-e'tiborini turizmni rivojlantirish muammolari hamda milliy turizm tashkilotlarining yangi mavqeiga qaratmoqdalar. 1921-yildan boshlab Millatlar Ligasi, BMTning 1975-yildan boshlab esa Jahon turizm tashkilotlarining rahbarligi ostida turizm muammolariga bag'ishlangan 30 dan ortiq xalqaro anjumanlar, kongresslar va tadbirlar o'tkazildi. 1995-yil mart oyida Kadis shahrida (Ispaniya) JTT rahbarligi ostida turizm bo'yicha xalqaro forum o'tkazildi va unda jahonning 52 mamlakatidan kelgan parlamentchilar ishtirok etdilar. Ushbu forum shunday xulosaga keldiki, davlatlar turizm rivoji uchun katta ahamiyatga molik quyidagi muammolarni yechishda yordam berishlari zarur:

- " Turistik rasmiyatchilikni tartibga solish va turistlar xavfsizligini oshirish;
- " Turizm infratuzilmasi, shu jumladan transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish;
- " Turistik tashkilotlar rahbarlari va xizmatchilarni o'qitish uchun sharoitlar yaratish;
- " Turistik ob'ektlar va safar manzillarida ekologik normalarga rioya qilishni ta'minlash
- " Turistlar huquqlarini himoya qilish;
- " Turistik firmalar uchun imtiyozli soliq tizimini ta'minlash;
- " Turizm qabul qilingan xalqaro mezonlar va normalar asosida ob'ektiv statistika hisoboti va nazoratiga amalga oshirish imkoniyatini beradigan iqtisodiy va statistik mexanizmlardan foydalanish;

" Turizm uchun foydali bo'lgan mamlakat timsolini shakllantirish yo'li bilan milliy mahsulotlarini chet-el bozorlariga olib kirish;

Turizmni rivojlantirishni rejalashtirish sohasida yetakchi ma'sulyat davlatga yuklanadi. Davlat idoralari turizmning tartibsiz rivojlanishini oldini olish maqsadida bu jarayonni nazorat qiladi. Sust rejalashtirilgan va boshqarib bo'lmaydigan turizm tuzatib bo'lmas zarar yetkazishi mumkin.



O'tgan qisqa davr mobaynida O'zbekiston turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan 16 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qillindi. Ushbu hujjatlar asosida turizm sohasini subyektlariga sezilarli soliq va bojxona imtiyozlari hamda boshqa yengiliklar taqdim qilindi. Mamlakatimizni turizm tarmog'ini Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkiloti (ISO) talablariga mos kelishini taminlash maqsadida turizm terminologiyasi va mehmonxona xo'jaliklari xavfsizligi talablari bo'yicha yangi 2 ta davlat standarti ishlab chiqildi va ro'yxatdan o'tkazildi. Zamonaviy dunyoda turizm jahon iqtisodiyotining eng ommaviy, daromadli va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Qadimiy, tarixiy va madaniy merosga ega bo'lgan kichik shaharlarning rivojlanishi uchun u ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanishi mumkin va bo'lishi kerak. Belorusiyada, turli mualliflar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot va loyihalash ishlari natijalariga ko'ra, 30dan ortiq kichik shahar aholi punktlari istiqbolli sayyohlik markazlari hisoblanadi.

Kichik shaharlarda turizm sohasini rivojlantirishga ko'maklashish bandlikni oshirish, mehnat migratsiyasini, shu jumladan, mehnat migratsiyasini kamaytirish vositasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak, ishbilarmonlik faolligi oshishi, korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilanishi, ijobiy sayyohlik imijini shakllantirish asosiy rol o'ynaydi. Kichik shaharlardan turizmni rivojlantirishga ko'maklashish uchun tadbirkorlik tashabussini faol ravishda rag'batlantirishda, qulay sarmoyaviy va tadbirkorlik muhitini yaratish, tadbirkorlarni turistik ma'lumot markazlarini yaratishga jalb qilish va turistik marketing strategiyasini shakllantirish zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, turizm biznesining o'ziga xos xususiyatlari keng doiradagi munosabatlar bilan bog'liq. Sayohat va dam olishni tashkil etish jarayonlarida ishtirok etadigan odamlar ushbu munosabatlarga kirishadi. Shuningdek, bu kabi berilgan barcha turizmni rivojlantirishga qaratilgan qarashlar hozirgi kunda o'z isbotini kursatmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Uzbekiston Milliy Insklopidiyasi 2006-2007 : B. Ahmedov, R.Akramov
- 2.The Republic of Uzbekistan encyclopedic reference 2017-2018: N.Tuxliyev, A.Karimova
- 3.Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистане 2019 : Н.Тухлиев Т.Абдуллаева
4. Организация туризма 2018: Ф.П.Дурович. [www.turizm.ru](http://www.turizm.ru)





## O'ZBEK MILLIY MEROSIY RAQSLARIMIZNING INTERNET TARMOQLARIDAGI O'RNI

**Komiljonova Dilbarxon Shukurjon qizi**  
**O'zbekiston Davlat xoreografiya Akademiyasi bakalavurianti**  
**Telefon:+998(90)7801813**  
**dilbarkomiljonova@gmail.com**

*Annotatsiya. Mustaqilligimizga erishganimizdan so'ng, barcha kasblar qatorida san'at ahliga ham katta e'tibor qaratilib kelmoqda. Bu borada ko'plab qarorlar ham imzolangan. Hozirgi kunda, muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan biz uchun juda keng imkoniyatlar yaratilmoqda va bir qancha qarorlar chiqarilmoqda. Bu barchamizni birdek quvontirib kelmoqda, bulardan , "Bahor davlat raqs ansambli"ni qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori o'z kuchini ko'rsatib, 2020-yil 4-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4584-sonli "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu hamma qatori meni ham juda quvontirdi. Prezidentimizning yana bir qarori PQ-4585 qarori bo'yicha O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil qilindi. Bularning barchasi quvonarli qarorlar bo'ldi. Shu kunlarda Bu oliygohda milliy raqs yo'lidan kelayotgan talabalar ko'p. Bunday qarorlardan keyin esa, yanada ko'p xarakat qilishimiz, yurtboshimiz bizga bergan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz kerak deb o'ylayman. Va biz albatta, o'zbek milliy raqsi bundan keyin ham o'z tomirini mustahkam qilishiga, butun dunyo milliy raqsmizga yuksak nazar ila qarashiga o'zligimiz va milliylikimizni yo'qotmasdan ish olib borishga xarakat qilishimiz kerak. Shuning uchun ham o'zbek merosiy milliy raqslaridan, internet tarmoqlariga saytlar ochilib, asl videolarini joylashtirishimiz kerak deb o'ylayman. Chunki, barcha raqs shinavandalari, ijrochilar qatorida biz shogirdlar ustozlarimiz, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova va boshqa ko'plab ustozlarimiz kabi bo'lishga harakat qilamiz. Va ular ijro qilgan, saxnalashtirgan raqslarini ko'rish, biz o'sib borayotgan yoshlarga zo'r motivatsiya vazifasini bajarishi mumkin. Shu o'rinda, biz yoshlar uchun sharoitni yaratib bergan Prezidentimizga cheksiz rahmatlar aytamiz. O'z san'atimiz va yo'limizni yuksak darajada barpo etamiz deb vada beramiz.*

*Kalit so'zlar : milliy raqslarimiz, "Bahor" ansambli, PQ-4584, PQ-4585*

Raqs bu- boshlangan tugallanmas o'ta ham nozik va ma'sulyatli san'at turi hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, dunyoning istalgan mamlakatlariga kirib borib, o'zbek raqsi haqida so'z ochsangiz albatta "Bahor" ansamblini yodga olib cheksiz hurmat extirom ila qarshi olishadi.

Raqs san'atining gultoji bo'lmish ustozimiz Mukarram Turg'unboyeva "Bahor" ansambili va yakka ijrochilar uchun 120 ga yaqin raqs sahnalashtirgan degan ma'lumotlarni bilamiz. Lekin, respublika bosqichlarida, Xalqaro festevallarda "Munojot", "Tanovor", "Pilla", "Nozanin" kabi raqslarni ko'plab ijro etishadi. Barchamiz hohlaymizki, bundan boshqa merosiy raqslarini ham o'rganib mohirona ijro etishni. Ba'zan buyuk asoschilarimiz raqslarini izlab internet tarmog'idan izlasak, ma'lumot topa olmaymiz.

Hozirgi davrda internet juda ham ommalashgan, vaqtinchalik darsliklarimizni ham hozirgi kunda online tarzda olib bormoqdamiz. Misol uchun klassika raqs darsligimizdan mavzular doirasida video kerak bo'lsa, shu harakat nomini internet tarmog'iga kiritsak, shu zahodi ma'lumotlar kelib chiqadi, lekin merosiy raqslar yoki "Bahor" ansambli raqslarini qidirsangiz ma'lumotlar juda ham kam. Bizda ham ko'rsatishga arzigulik merosiy raqslarimiz, malakali ustozlar tomonidan o'tkazilgan video darsliklarimiz ham yo'q emas-ku. O'zbek milliy raqs deb internet tarmog'idan izlanganda, qandaydir keraksiz to'ylarda



ijro qilingan raqslar kelib chiqadi. Bu esa, o'zbek raqsiga mehr qo'yayotgan insonlarni uzoqlashtirishga olib keladi. Axir internetni butun dunyo kuzatib boradi, xorij davlatlarda ham o'zbek milliy raqsiga havas qilib, uni o'rganmoqchi bo'lgan tengdoshlarimiz ham yo'q emas. To'g'ri, raqslarni qanday sahnalashtirish borasida kitoblar yetarli, kimdir kitobdan ko'rib o'zlashirishi mumkin, kimdir esa video orqali, ammo ustozlarimiz tomonidan asl raqslarini ko'rish, insonga boshqacha zavq baxsh etadi. Butun dunyo internet orqali bemalol bizning asl milliy raqslarimizdan baxramand bo'ladi. Yangi o'sib borayotgan biz shogirdlarga esa bu yaxshi dars bo'ladi. Chunki, asl videolarda milliylikimiz yaqqol namoyon bo'lib turadi. Shuning uchun ham milliy raqslarimizni internet tarmoqlarida saytlar ochilib, saytlarga milliy merosiy raqslarimizdan joylashtirishimiz kerak deb o'ylayman. Ko'p bora to'y-u hashamga borayotgan o'yinchilarni kuzatmoqdamiz. To'g'ri, ular insonlarni hursandchiligiga sherik bo'lishmoqda lekin, o'zbek xalqimizda chegara degan narsa bor. Ayrim o'yinchilarni kiyayotgan kiyim-u, o'ynayotgan raqslarini ko'rsangiz, o'zligimiz yo'qolmoqda degingiz keladi. Ularni ko'rgan insonlar esa, O'zbekistondagi barcha raqs san'ati ahlini ular qatorida ko'rishadi. Ammo ularni aksariyati umuman milliy raqsimizdan xabari yo'q insonlardir. Bunday no o'rin fikrlarni yo'q qilish uchun profesional milliy raqsimizni yanada rivolantirish, raqsni tomiri bo'lmish bolajonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsata bilish kerak. Yuragida josh urayotgan sohasiga qiziqishini oshirish, ochiq ekskursiyalarni ko'proq o'tkazish, chekka hududlardagi san'at maktablariga borib, ustoz-shogird an'analarini ko'paytirish, zamon bilan hamnafas xolda internet tarmog'i orqali barcha yutuqlarimizni yoritib borishimiz lozim.

Raqsnig eng asosiy negizi bu raqqosaning kiygan kiyimidir. Libos ham raqs millatiga va eng avvalo ijrochi uchun qulay bo'lmog'i kerak. Bilasizmi oldingi raqqosalar sahnada milliy raqsmizni ijro etayotganlarida o'zimizning xonatlas-u, adraslarimizdan liboslar kiyib chiqishar edi. Lekin hozirgi kunda ochig'ini aytganda o'z ijodini ko'rsatish uchun emas, ustiga kiygan libosini, bo'ynidagi taqinchoqlarini ko'rsatish uchun chiqayotgan ijrochilar ham ko'p va telekanal orqali bo'layotgan kiliplarda ham kuzatmoqdamiz. Anashu klipgaraqqosaqosh ko'zini uchurish uchun emas raqs ijro etish uchun chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Va bu borada internet tarmoqlarida milliy raqsiga oid saytlar ochilishi, telekanallar orqali milliylikimizni saqlab qolish uchun raqsiga monan dasturlar bo'lmog'i zarur deb o'ylayman. Yurtimizda shunday bir odat borki singil opasidan o'rnak olgani kabi yosh istedodlilar ham mashhur raqqosalarga havas qilishadi, ular tomon intiladi. Buning uchun mashhur raqqosalar o'rnak bo'lmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar: madaniyat.uz va shaxsiy fikrdan.



## INSON RUHIYATINING KAMOLOTIDA SIMFONIK MUSIQANING O'RNI

**Alimbayeva Maftuna**

**Badiiy akademiya tasarrufidagi Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi**

**Normuminov Ravshan**

**Buxoro Davlat Universiteti talabas**

**Telefon: +998 91 248 71 07**

*Anotatsiya: Ushbu maqolada simfonik musiqaning inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri va musiqa psixologiyasining ijtimoiy hayotimizda tutgan o'rni, ahamiyati hamda soha rivojidadagi dolzarb masalalar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: musiqa psixologiyasi, evritmiya ta'limoti, simfoniya, simfonik orkestr, o'zbek simfonik maktabi.*

Musiqa - san'atning ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanib taraqqiy etishi ma'lum bir tarixiy bosqichlar hamda davrlarga borib taqaladi. Inson ruhiyatiga musiqa xususan simfonik musiqaning ijobiy ta'siri nihoyatda kuchli bo'lib, musiqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlarni olib borgan antik davr faylasuflari Pifagor, Platon ham o'z risolalarida tasdiqlab o'tgan. Xususan, Pifagor evritmiya ta'limotida shu haqida fikrlar bildirgan va u evritmiya deganda insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushunib, ijtimoiy hayotni ladga va orkestrga qiyoslagan. Boshqa bir yunon faylasufi Platon esa, davlatning kuch- qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan- to'g'ri bog'liqligi haqida yozib qoldirgan.

Jahon musiqa madaniyati bevosita yuqori estetik qarashlar bilan yo'g'rilgan nozik, emotsional mazmun- mohiyat kasb etuvchi mukammal hamda professional darajadagi ko'plab simfonik orkestr uchun yozilgan durdona asarlarga nihoyatda boyligi sababli, deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida bu soha rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda.

Simfoniya - (yunon so'zi - ohangdosh so'z ma'nosini bildiradi). Jahon musiqa san'atida simfoniya janr sifatida, XVIII asrda G'arbiy Yevropa kompozitorlarining ijodiy izlanishlarida shakllangan.

Klassik simfoniya asida to'rt qismli murakkab cholg'u musiqadir. 1-qism "Sonata allegro", 2-qism vazmin suratli turli shaklga ega, 3-qism Skerso, 4-qism "Rondo" yoki "Variatsiya" shaklida yoziladi. Qismlarning o'rni almashishlari mumkin. Shu bilan birga 1 yoki 5, 6 qismli simfoniya ham bo'ladi. Katta va

kamer simfonik orkestr va boshqa turdagi cholg'u orkestrlar uchun simfoniya yozish mumkin. Kompozitorlar simfoniya yaratishda orkestrlarning barcha imkoniyatlaridan mukammal ravishda foydalanadilar.

Simfonik musiqaning ommalashishida va turli janrlarini rivojlanish jarayonida "Vena musiqa maktabi" muhim rol o'ynadi. XVIII-XIX asrlarda Korelli, Vivaldi, Gaydn, Bax, Gendel, Mostart, Betxoven, Shubert, Shuman, Paganini, Smetana, Dvorjak, List, Shopen, Grig, Glinka, Borodin, Musorgskiy, Rimskiy-Korsakov, Chaykovskiy kabi ulug' kompozitorlarning yaratgan "Simfoniya", "Cholg'u konsert" va simfonik musiqani boshqa shakllaridagi asarlari jahondagi barcha simfonik orkestrlarning hamda mashhur sozandalarning asosiy repertuarlaridan o'rin oladi. XX asrda simfonik orkestr va simfonik musiqani barcha janrlari G'arb va Sharq mamlakatlarda ham keng rivojlandi. Shular qatorida O'zbekistonda ham ilk simfonik musiqa XIX asrning oxirlarida kirib keladi.

Simfonik musiqaning O'zbekistonda shakllanish rivojlanish jarayoni o'ziga xos uch ijodiy jarayonlardan iboratdir.

Birinchi bosqich - bu simfonik janr, ijrochilik mezonlarining O'zbekistonga kirib kelishi hamda rusiyabon kompozitorlari tomonidan o'zbek musiqa ohanglari asosida bir



qator simfonik janrlarga xos asarlarni yaratilishi bilan bog'liqdir. Ikkinchi bosqich - hamkorlik, milliy kompozitorlik maktabi namoyandalari ijodida simfonik asarlarni turli janrlarida namoyon bo'lishi.

Uchinchi bosqich o'zbek simfonist-kompozitorlarining shakllanishi va jahon andozalariga xos yetuk asarlar yaratilishi bilan bog'liqdir.

O'zbek simfonik maktabining ilk namoyandalari rusiyzabon kompozitorlardan iborat edi. "Samarqand syuitasi" (1930) V.Deshevov, "O'zbekistonning musiqali manzarasi" (1931) M.Ippolitov-Ivanov, "O'zbekcha rapsodiya" va "Farg'onacha marsh" (1931) V.Zolotaryov "Советский Восток" (1932) S.Vasilenko, birinchi

simfoniya (mi minor, 1937) G.Mushel kabi kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlar, o'zining milliylik jihatlarini namoyon etadi.

Kompozitorlarning simfonik orkestr uchun yozgan asarlari musiqa psixologiyasining tub tayanch nuqtasiga aylandi. Ya'ni turli xarakterga va fe'l- atvoriga ega insonlarning ruhiy ozuqa olishlari uchun turli mavzularda yaratildi hamda musiqa psixologiyasida muhim o'rin egalladi.

Umuman olganda ilmiy musiqa psixologiyasi nemis tabiatshunosi German Gelmgolsning (1821-1894) eshitish rezonansi nazariyasidan boshlandi. Bundan tashqari O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda musiqa psixologiyasi Forobiy, ibn Sino, Jomiy, Marog'iy, Kavkabiylar kabi buyuk mutafakkirlar ijodida o'z rivojini topdi hamda bu mavzuga oid ko'plab risolalarni qoldirishdi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri- musiqa psixologiyasida ro'p bora yoritilgan va uni fiziologik jihatdan asoslab bergan fiziolog olimlar I.M. Sechenov va I.P. Pavlovning oily nerv faoliyati, ikkinchi signal sistemasi haqidagi asarlarida bayon qilingan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirov R. "Musiqqa psixologiyasi", -T., 2005.
2. Н. С. Янов - Яновская "Ўзбекская симфоническая музыка", -Т., 1979.
3. Т. С. Вызго "История узбекской музыки", -Т., 1972.



## NIKOLAY METNER MUSIQIY MEROSIDA FORTEPIANO UCHUN YOZILGAN SONATALARNING O'ZIGA XOS O'RNI

**Gulmira Normuminova,**

**Ozoda Arziqulova**

**Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchilari**

**+998 94 531 70 96; ozodaarzikulova@gmail.com**

*Anotatsiya: Ushbu maqolada buyuk rus kompozitori Nikolay Metnerning yirik shakldagi asarlar sirasiga kiruvchi sonatalarining - musiqiy badiiy yondashuv, kompozitorning musiqiy tili, ijrochining ijro talqini hamda tinglovchining fikri, emotsiyalari, temperamentini orqali qanday tub mazmun - mohiyat kasb eta olishi yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: Metner, sonata, kompozitor - ijrochi - tinglovchi uchligi, Fojiali sonata.*

Jahon musiqa madaniyati bevosita yuqori estetik qarashlar va shakllanish tarixi ma'lum bir davrlarga borib taqaluvchi nozik, emotsional mazmun - mohiyat kasb etuvchi mukammal hamda professional darajada yozilgan ko'plab durdona asarlarga nihoyatda boyligi sababli, deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida fortepiano sohasi rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Forteplano cholg'u ijrochiligida yirik shaklda yozilgan asarlarning, ayniqsa sonatalarning o'rni hamda ahamiyati benihoya katta. Negaki, o'ziga xos shakl va rang baranglikka ega ushbu asarlar - musiqiy badiiy yondashuvni, kompozitorning musiqiy tili va ijrochining ijro talqinini hamda tinglovchining fikri, emotsiyalari va temperamentini aks ettiradi.

Yirik shaklda yozilgan fortepiano asarlari bilan mashhur ko'plab kompozitorlar tilga olinganda, ular orasida buyuk rus kompozitori Nikolay Karlovich Metnerning jo'shqin hamda samarali ijodiy faoliyatini e'tirof etish joiz bo'ladi va u rus va jahon musiqa madaniyatiga sezilarli darajada o'z hissasini qo'shgan kompozitorlardan biridir.

Metner har tomonlama mukammal bilim va salohiyatga ega bo'lgan ajoyib kompozitor bo'lishi bilan bir qatorda, mohir pianist va pedagog hamdir. Uning ijodiy faoliyati, kompozitorlik va ijrochilikda ko'plab rus va jahon musiqa namoyondalarining musiqiy uslub va badiiy tiliga murojaat qiladi.

Kompozitorning boy musiqiy merosi boshqalardan ajralib turuvchi sodda, sof va tushunarli ifodaviylik unsurlari bilan boyitilgan, hissiyotlarga to'la musiqiy tili bilan harakterlanadi. Yirik shakldagi asarlarga xos bo'lgan jihatlar N. Metnerning sonatalarida kuy, lad, ritm, faktura, janr, shakl orqali kompozitorlik va ijrochilik vositalarining uyg'unligini yuzaga keltirishga, yangi garmonik rang-baranglikka ega bo'lgan tovushlar koloritini yoritish orqali o'sha davr va bugungi kun simfonik musiqasiga oid o'ziga xos yo'nalishni ifodalovchi romantik musiqa belgilarini uyg'unlashtirishga xizmat qilganligining guvoni bo'lishimiz mumkin.

Shu sababli buyuk rus kompozitori Nikolay Karlovich Metnerning yirik shakldagi asarlari ayniqsa uning sonatalarini o'rganishga bo'lgan talab nafaqat rus, balki jahon va O'zbekiston pianinchilari orasida ham kuzatilmoqda.

Kompozitorning fortepiano cholg'u ijrochiligining yanada rivojlanishi va taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shgan musiqiy merosi bu - uning 14 ta fortepiano sonatalari hisoblanadi. Bu sonatalarda kompozitorning bir-biridan farq qiluvchi musiqiy til, yo'nalish, musiqiy ohang, o'ziga xos garmoniya va harakter uyg'unligini yaxlit bir holatga keltirishi, fortepiano cholg'u ijrochiligining taraqqiy etishiga yangicha ijro unsurlari bilan yo'l ochib berib, pianinchilarda musiqaviy did, salohiyatni shakllantirishga oid mukammallik o'z ifodasini topgan.

Aynan kompozitorning ushbu 14 sonatalarida ijrochilarning musiqiy faoliyatlarini



davom ettirishda zarur hisoblanadigan va har qanday ijrochining o'z oldiga qo'yishi kerak bo'lgan bir qator vazifalarni mustahkamlashga qaratilgan musiqiy murakkabliklar, sodda hamda ravon yo'llar bilan ifodalangan.

Metnerning "Foijali sonata" si o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, uning yaratilishida kompozitor foijali harakter uyg'unligi asosida shiddatli ifodaviylik chizg'ilari yordamida, munosib qo'llanilgan poliritmik faktura, yorqin nyuanslar ketma - ketligi, lad va boy garmoniya orqali kuchli va o'zgaruvchan, to'lqinsimon koloritlarga yo'g'rilgan foijali harakterni o'zida to'liq ko'rsata olgan.

Kompozitorning "Fojeali sonata" (Sonata tragica) c-moll, or. 39 № 15, "Romantik sonata" b-moll, or. 53 № 1, "Grozovaya sonata" (Sonata orageuse) f-moll, or. 53 № 2, "Sonata idilliya", C-dur, or. 56, Sonata g- moll, or. 22 ni musiqiy idrok bilan o'rganish ijrochidan alohida mahorat kasb etadi.

Metnerning asarlarini ijro etish va ularning mohiyatini anglashda, kompozitorning ijodiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni bilish maqsadga muvofiq bo'ladi. V. Delsovning "Muzika Metnera", E. Dolinskayaning "Nikolay Metner" deb nomlanuvchi kitoblarida kompozitorning hayoti va ijodi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirib o'tilgan bo'lsa, N. Myaskovskiyning S. SHlifteyn nashri ostida chop etilgan "N. Metner. Sbornik - pisma, statyi, vospominaniya" hamda V. YAKOVLEVning "N. K. Metner" deb nomlanuvchi kitobida kompozitor asarlarining yaratilishi, omma e'tiboriga namoyish etilishi bidan bog'liq qizg'in ijodiy jarayonlar, Metner asarlarining zamondosh ijodkor tomonidan yoritilishi, ijrochilarning kompozitor asarlariga bo'lgan ta'lab, munosabat, fikrlari to'liq namoyon etilgan. Kompozitorning yirik shakldagi asarlari P.I. Vasilev "Fortepiannie sonati Metnera" kitobida ayniqsa sonatalari to'g'risidagi, Ye. B. Dolinskaya "Nikolay Metner: monograficheskiy ocherk" hamda N. Tumaninaning "Istoriya russkoy muziki" kitobining III tomida kompozitorning xhyot va ijod yo'li haqida ma'lumotlar keltirilgan. Metner sonatalarining ijrosi mukammal texnika bilan bir qatorda kompozitorning boshqa musiqachilardan tubdan farq qiluvchi musiqiy tili, yangicha ijro unsurlariga yo'g'rilgan boy koloritli harakterli chizg'ilari bilan ifodalanganligi sababli, har bir ijrochining to'laqonli talqini kuchli uchlikning, ya'ni kompozitor - ijrochi - tinglovchi ichki dunyosi uyg'unligi bilan yaxlit butunlikni namoyon etishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Delsov V. "Muzika Metner", -M., 1962.
2. Dolinskaya Ye. "Nikolay Metner"., 1966.
3. Yakovlev V. "N. K Metner", -M., 1927.



## UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MILLIY MA'NAVIYATIMIZ UYG'UNLIGI- MILLIY TIKLANISHNING MUHIM ASOSI

**Turg'unova Mohinabonu Akmaljon qizi**  
**Andijon Davlat universiteti talabasi**  
**Tel: 945013299**

*Annotatsiya: Ushbu maqolada umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyatimiz uyg'unlashuvi hamda uni barqarorlashtirishda eng muhim omillar haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: Millat, xalq, qadriyat, elat.*

Millat ma'naviyati ushbu millatga aloqador barcha shaxslar ma'naviyatining majmuyidan iboratligi barchamizga ayon. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros milliy ma'naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo'yibdi, faqat uni holis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug' an'ana-ulug' bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o'z muqaddas mulki deb tan olgan ma'naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala milliy ma'naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va birinchi navbatda, yosh avlod e'tiborini jalb etish maqsadini ko'zda tutadi.

Xalq ma'naviyatini, millat ma'naviyatini sun'iy ravishda, qandaydir o'ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o'zgartirib ham bo'lmaydi. Chunki ma'naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa'ridan oziq olib, teranlik kasb etib keladi. Xalq ma'naviyatini mustahkamlab, yuksaltirish davlatning muhim vazifasi bo'lib kelgan. Birinchi Prezidentimiz ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan beqiyos kuch ekanligini doim ta'kidlashlari jamiyatning qaysi sohalarida oqsayotganidan dalolat berib turar edi.[1.23].

Hech bir xalq dunyoda yakka yashamaydi, yolg'izlikda rivojlanmaydi ham. Elat va millatlar doimo o'zaro turlicha munosabatda bo'ladilar va tarix davomida bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'zlarini ham, o'zgalarni ham ma'naviy boyitib boradilar. Ammo hech qachon, hech bir xalq o'zligidan butkul kechib, boshqa xalq ma'naviyati hisobidan o'zini boyita olgan emas. Yakka bir shaxs butkul o'zga bir ma'naviy muhitda tarbiya topib, unga to'liq moslashishi mumkin. Bu inson tabiatiga xos narsa. Ammo bir xalq to'lig'icha o'zligidan kechib, o'zga xalq ma'naviy dunyosini qabul qilsa, demak, unday xalq yo'q bo'ladi, o'z ma'naviy qiyofasini yo'qotgan millat yo'qolgan millatdir. Shu sababli ham milliy mustaqillik poydevorini ma'naviy mustaqillik tashkil etadi, deyiniz. Milliy ma'naviyatning takomili esa o'sha millatga mansub har bir shaxsning ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'liq va ushbu zaminga tayanib yuksaladi.

Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, "progressiv-reaksiyon" atalmish zo'raki qoli plargatqishtirilmadan tiklanaboshladi. Qur'oni karim, Hadisi shariflar birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa sovet davrida, hatto, nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etib, chanqoq kitobxonlar qo'lga yetib kela boshladi.[2.34]. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari - Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileylari millatimizning ruhida poklanish tuyg'ularini uyg'otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz



Amir Temurning ulug'vor mujassamasi o'rnatilishi o'zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o'chmas yog'du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma'rifat, adolat, hurriyat sari yetaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o'rin ola boshladi. "Bosmachi" deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o'z qadrlariga loyiq baholandidilar.

Yaqin o'tmishda, ya'ni qaramlik davrida milliy ma'naviy merosni o'rganishga qanday yondoshildi, degan masalada ba'zan bahs tug'ilib qoladi. Ba'zilar shunday fikrlashadi: "Axir o'sha yillar davomida ham o'tmish meros ozmi-ko'p o'rganildi-ku! Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa qator allomalarning asarlari rus va o'zbek tillarida bosilib chiqdi, tadqiq va targ'ib etildi. Bu ulkan ijodiy mehnat bir necha avlod olimlarining umr mazmunini tashkil etmadimi?" Nihoyatda to'g'ri. Ustozlarimiz bu yo'lda chinakam fidoiylilik namunalarini ko'rsatishdi. Bugungi milliy ma'naviyatimizni tiklash yo'lidagi urinishlar ko'p jihatdan o'sha zahmatkash ustozlar yaratgan zalvorli poydevorga tayanib turibdi. Ammo ayrim insonlarning millat ma'naviyati yo'lidagi fidoiyligi bilan hukmron tuzum va uning mafkurasi ko'zlagan asl maqsad, bu sohada yuritgan qat'iy siyosati orasida jiddiy farq bor ekanligini ham bugun o'zimizga oydinlashtirib olishimiz kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T. 2008-yil.
2. Dunyo siyosat jamiyati. 9-nashr
3. Internet saytlari: ziyonet.uz,





## ГУРУҲЛИ ФИЛЬМ-ПОРТРЕТЛАР ХУСУСИЯТЛАРИ

**Исмаилов Камолиддин Саидахмадович**

**ЎзРФА Санъатшунослик институти мустақил изланувчиси (PhD)**

**тел: (97) 735-76-01, argicam33@mail.ru**

### *Аннотация*

*Ўзбек ҳужжатли киносида фильм-портрет жанри сўнги даврларда сермахсул жанрлардан бирига айланди. Яратилган фильмлар қаторида бир неча гуруҳли (групповой) фильм-портретлар учрайди. Бу турдаги фильмлар ҳақида жуда кам ёзилган бўлиб, қуйида уларнинг айрим ўзига хос хусусиятлари ҳақида сўз боради.*

*Калит сўзлар: ҳужжатли, фильм-портрет, интервью, монолог.*

Ўзбек ҳужжатли киносида фильм-портрет жанри 1990 йилларга келиб ўзининг янги қирраларини номоён эта бошлади. Агар эътибор қилсак, сўнги 30 йил мобайнида тарихий мавзудаги фильмлар ҳар қачонгидан ҳам ортганлигини кўришимиз мумкин. Шу билан бирга фильм-портрет жанри барча замон ва барча соҳа илғорларини ҳам ёритиб келмоқда [1, 30].

Бугунги кунгача яратилган фильм-портретлар қаторида гуруҳли фильм-портретлар сарасига кирувчи бир неча ҳужжатли фильмлар учрайди. Масалан, "Улар Германияда ўқиган эдилар" (1998), "Умид қалдирғочлари" (1998), "Аёл қадри" (2011), "Олтин бешик адабиёти" (2012), "Боғбон бўлсанг боғ ярат" (2014), "Чемпионлар оиласи" (2014), "Киномусаввир" (2017) каби бир неча фильмларни мисол қилиш мумкин.

Гуруҳли фильм-портретларнинг ижодий имкониятлари кенгроқ ҳисобланади. Бундай фильмларда бир эмас бир неча қаҳрамон қараши орқали ягона, умумий бўлган умумлашган образ яратилади. Шу билан бирга бир фильмдаги турли қаҳрамон қарашлари томошабинда эмоционал конфликтни пайдо қилиши мумкин. Бу ҳолат фильмни қизиқарлигини янада оширади. Фильмдаги бир неча қаҳрамонларнинг турлича қарашлари ва образлари ижтимоий муҳитни кенгроқ ифодалашга ҳам ёрдам беради.

Гуруҳли фильмлар қаҳрамонларини икки асосий турга бўлиш мумкин. Биринчи турда қаҳрамонлар бир-бирини танишмайди ва ҳар бири ўзининг функционал ўрнига эга. Иккинчи турда қаҳрамонлар бир-бирини яхши билишади, улар бир жойда яшаши, ишлаши, ўқиши, мақсадлари бир нуқтага қаратилган бўлиши мумкин. Масалан, жадид маърифатпарварларига бағишланган "Улар Германияда ўқиган эдилар" (реж: Ш.Маҳмудов, 1998) фильмида қаҳрамонларнинг қарашлари ва мақсадлари бир, конфликт эса қатағон машинаси билан боғлиқдир. Ушбу фильмга "Умид қалдирғочлари" (реж: Ф.Шукуров, 1998) фильмини ўхшашлигини кўраимиз. Фильм чет элларда таҳсил олиш учун "Умид" жамғармаси томонидан юборилган талабаларнинг қувонч ила таҳсил олишлари, талабалардан кутилаётган орзу умидлар, уларнинг порлоқ келажаги ҳақида сўзлайди. Бу фильмда биринчи фильмдаги каби қаҳрамонларнинг зиддиятли вазиятлари бўлмасада, уларнинг порлоқ мақсадлари йўлидаги ҳаракатлари сюжетни ушлаб туради [2, 45].

Гуруҳли фильм-портрет яратишнинг мантиқан маълум бир сабаби бўлмаса ўзини оқлай олмайди. Фильмдаги бир неча қаҳрамон ягона гоёни очиб беришга ҳизмат қилиши ёки бири иккинчисининг характерини очилишида рол ўйнаши лозим. Бу жараёнда қаҳрамонлар бир-бирларини қанча яқиндан билсалар шунча яхши. Масалан, "Олтин бешик даври адабиёти" (реж: Т.М.Юнусов, 2012) фильмида шоир ва шоиралар Амир Умархон, Жаҳонотин Увайсий, Моҳларойим Нодиралар



образи яратилган. Фильм қаҳрамонлари бир-бирларини яхши билишади, улар ҳаёти ўзаро боғланиб кетган. Буни тўғри англаган режиссёр қаҳрамонларни аксарият ҳолатларда биргаликда тасвирлашга ҳаракат қилган. Улар ўз ёзган шеърларини бир-бирларига ўқиб берадилар, ўзларининг илиқ муносабатларини билдирадилар. Натижада ҳар бирининг маълум образи пайдо бўла бошлайди.

Гуруҳли фильм-портретларда қаҳрамонлар кетма кет ёки параллел равишда номоён бўлиши кузатилади. Ушбу ҳолатни режиссёр доим ҳам бошқара олмаслиги мумкин. Лекин "Олтин бешик даври адабиёти"да ундай эмас, фильмнинг бошиданоқ қаҳрамонлар биргаликда тасвирлансада, режиссёр уларни кетма кет таништиришга ҳаракат қилади. Бу усул орқали қаҳрамонлар дунёсини чуқурроқ ва тартиб билан ёритишга эришган.

Параллел ёритиш усулида эса қаҳрамонлар образи қоришади, бир-бирини тўлдирга бошлайди, ҳар бирининг сифатлари айнан қоришиш натижасида очилиб боради. Масалан, маърифатпарвар олим Сайид Ризо Ализода ҳақидаги "Моварауннаҳр фарзанди" (реж: М.Одилов, 2017) хотира фильм-портретида воқеалар набираси Фарход Ализода томонидан ёритилиб борилади. Набирасининг интервьюлари ва ҳатти ҳаракатлари давомида ўзининг характери ҳам очила бошлайди. Натижада режиссёр кутмаган бир ҳолатда Фарход Ализоданинг ҳам портрети пайдо бўлади.

Мана шундай "портрет ичидаги портрет" усулидаги фильмлардан, Навоийшунос олима Сўйима Ғаниевага бағишланган "Йўл" (2014) фильмини ҳам мисол қилиш мумкин. Фильмда Сўйима Ғаниеванинг эҳтиросли монологлари орқали Алишер Навоий образи гавдаланган. Муаллиф Эшқобил Шукуров, қаҳрамон образини ҳазрат Навоий ижоди йўлидаги изланишлари билан боғлаган ҳолда очиб берган.

Бу каби фильмлар мисолида шунга айтиш мумкинки, гуруҳли фильм-портретлар ўз хусусиятлари билан қаҳрамонлар образини ва даврлар муҳитини оқилона ҳолатларда, янада ишончли қилиб томошабинга етказиш имкониятига эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Тешабаев Ж. "Фильм-портретлар" Ўзбекистон ҳужжатли киноси. Мақолалар тўплами. ЎзРФА. Т., 2008, 30 б.

2. Ҳасанов А. "Мустақиллик давридаги ҳужжатли кино" Ўзбекистон ҳужжатли киноси. Мақолалар тўплами. ЎзРФА. Т., 2008, 45 б.



## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ МИЛЛАТНИНГ МАЪНАВИЙ ҚИЁФАСИ

**Мирзакаримова Рузахон Алишер қизи**

**Ўзбекистон давлат хореография академияси "**

**Санъатшунослик"таълим йўналиши 2-босқич талабаси**

**Пардабоев Рустам Асатулло ўғли**

**Ўзбекистон давлат хореография академияси**

**"Санъатшунослик" таълим йўналиши 2-босқич талабаси**

*Аннотация: Мақолада Маданият ва санъатнинг ўзаро чамбарчас боғлиқлиги ва унинг ижтимоий ҳаётдаги ўрни ҳақида сўз юритилган. Санъат хусусан хореография соҳаси, Хоразм рақс мактаби рақсларининг дурдонаси "Лазги" рақсини ЮНЕСКОга киритилганлиги ёритиб берилган.*

*Калит сўзлар: Маданият, санъат, хореография, хоразм мактаби, лазги, ЮНЕСКО.*

Ватанимиз - кўхна тарих ва бой маданиятга эга бўлган мамлакат. Ўзбекистон халқлари ва маданияти Қадимги Шарқ тамаддунининг салмоқли қисмини ташкил этган. Маданият ҳақида сўз кетганда Биринчи президентимиз И.А.Каримовнинг " Сир эмаски ҳар қайси давлат, ҳар қайси миллат нафақат ерости ва ерусти табиий бойликлари билан, ҳарбий қудрати ва ишлаб чиқариш салоҳияти билан, балки биринчи навбатда ўзининг юксак маданияти ва маънавияти билан кучлидир." деган сўзлари йодимизга тушади. Дарҳақиқат, маданият жуда кенг тушунча бўлиб, ажодлар тафаккури, билимлари, ижоди ва атроф-муҳитга бўлган муносабатининг маҳсули. У жамият, инсоннинг ижодий куч ва қобилиятларининг тарихий тараққиётининг муайян даражасидир. Маданият ривожланиши билан миллат ва унинг маънавий қиёфаси ҳам шаклланган. Маданият билан санъат ўзаро чамбарчас боғлиқ. Маданият санъат турларида ўз аксини топади. Яъни мусиқа, адабиёт, театр, меъморчилик, хореография каби санъат турлари асарларида намоён бўлади.

Санъат - Ижтимоий онг ва инсон фаолиятнинг ўзига хос шакли. У қадимий тарихга эга. Санъа жамият тараққиётининг илк босқичларида меҳнат жараёни билан, кишиларнинг ижтимоий фаолиятининг ривожланиши билан боғлиқ ҳолда вужудга келди. Санъат инсонларни эстетикасини бойитиш билан бирга жамиятни маълум руҳда тарбиялаш, уларни ақлий ва ҳиссий жиҳатдан ривожлантиришга ҳизмат қилиб келмоқда. Санъат турли кўринишлари билан ўзига хос бадиий эстетик қадриятларни жамлаш, сақлаш ва бошқаларга ўз ҳолича етказишга эга бўлган эстетик тизимни ташкил этади. Санъат - тасвирий санъат, меъморчилик, ҳайкалтарошлик, мусиқа театр, кино, цирк, бадиий адабиёт, хореография ва бошқаларни ўз ичига олади.

Ҳозирги кунда мухтарам президентимиз томонидан олиб борилаётган ислохотлар санъат соҳасини ҳам четлаб ўтмади. Хусусан хореография соҳасини ривожлантириш мақсадида талайгина президент фармонлари ва қарорларини мисол қилишимиз мумкин. Мухтарам Президентимизнинг "Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш" чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-4584 қарорида Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги "Мукаррама Турғунбоева номидаги "Баҳор" давлат рақс ансамбли" давлат муассасасини қайта тузиш ва "Мукаррама Турғунбоева номидаги "Баҳор" давлат рақс ансамбли" давлат муассасаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида эканлиги бунга яққол мисол бўла олади. Ушбу қарорни эса кўп асрлик бой ва бетакрор маданиятимизнинг ажралмас қисмига бўлган миллий рақс санъатининг халқимиз маънавияти, бадиий эстетик қарашларини юксалтириш, ёш авлодни миллий қадрият ва анъаналаримизга ҳурмат, Ватанга



муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш борасида ўрни ва аҳамияти беқиёсдир. Бундан ташқари "ЛАЗГИ" халқаро рақс фестивалини ташкил этиш тўғрисидаги фармони эса "Хоразм лазги рақси" ўзбек миллий рақс санъатининг ноёб намуналарини кенг тарғиб қилиш, уни асраб-авайлаш ва ривожлантириш, ёш авлод қалбида миллий рақс санъатига ҳурмат ва эътибор туйғуларини камол топтириш, турли халқлар ўртасидаги дўстлик ва биродарлик ришталарини мустаҳкамлаш, ижодий ҳамкорлик, маданий-маънавий муносабатлар доирасини халқаро миқёсда кенгайтиришни ўз олдига мақсад қилган. Бундан ташқари Хоразм лазгиси ЮНЕСКОнинг номоддий маданий мероси рўйхатига кирди ва уни тасдиқловчи сертификатни ҳам Ўзбекистонга юборишди. Бу эса миллий рақсимизнинг эришган улкан ютуғи бўлди. Бу билан Лазгининг қадимийлигидан ташқари унинг дунёда тенгсиз эканлиги ҳам тан олинган эди. Хоразм куй-қўшиқлари ва рақслари ўзига хослиги билан ажралиб туради. Хоразм санъатининг қайси бир тури бўлмасин алоҳидалиги, миллийлиги, анъанавийлиги, идро этиш услуби билан фарқ этиб туради. Хоразм лазгисининг ЮНЕСКОга кирганлиги бежиз эмас, у Хоразм рақсларининг дурдонаси, гултожи ҳисобланади. Лазгини дунёга танитиш ва уни тан олдириш учун узоқ йиллардан бери тиним билмай ҳаракат қилиб келаётган Гавхар Матёқубованинг меҳнатлари беқиёсдир. Таъкидлаш жоизки, жорий йилнинг февраль ойида Ўзбекистон республикаси Президентининг "Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни янада ривожлантириш чора тadbирлари тўғрисида"ги қарори қабул қилинди. Бунга Тошкент давлат миллий рақс ва хореография олий мактаби негизида давлат олий таълим муассасаси шаклида Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги тизимида Ўзбекистон давлат хореография академияси ташкил этилди.

Ишонамизки, ушбу қарор хореография академияси талабаларини қувонтиради ва албатта миллий рақсимизни дунёга танитишда янада кўпроқ ижод ва меҳнат қилишга куч беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. "Офатихон лазги" Г.Матёқубова. Адабиёт ва санъат. 1993 й
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил, 04 февралдаги Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора-тадбири тўғрисидаги ПҚ-4584 сонли қарори.
3. "ЛАЗГИ" халқаро рақс фестивалини ўтказиш тўғрисидаги Президент қарори.
4. Ўзбекистон республикаси Президентининг 2020 йил, 04 февралдаги "Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни янада ривожлантириш чора тadbирлари тўғрисида"ги қарори



## **ПРОБЛЕМА ТВОРЧЕСКОГО ПРОСТРАНСТВА БАЛЕТМЕЙСТЕРА- РЕЖИССЕРА РАВШАНА ЧАРЫЕВА.**

**Равшан Полатович Чарыев**

**gamash@mail.ru тел.+998974459165**

**Член международного совета по танцу CID UNESCO-29059**

**Государственный Академический Большой Театр им.А.Навои**

*Аннотация: В статье раскрывается творческий процесс создания балетного спектакля и особенности работы балетмейстера с дирижером, сценографом, художником по костюмам.*

*Ключевые слова: Балет, балетмейстер-режиссер, балетмейстер-постановщик, хореографическое искусство.*

В современном мире человека окружает нескончаемый поток данных постановки балетного спектакля, которые часто с трудом удается контролировать. Однако, явно или подспудно, этот поток творчество оказывает на нас воздействие.

Процесс создание выпуска нового детского балетного спектакля на музыку К. Хачатуряна "Белоснежка и семь гномов" пожалуй, самый завораживающий и притягательный во всём театральном деле! Премьера балета состоялась 23 сентября 2018г. и с этого момента спектакль прочно вошел в репертуар ГАБТ им. А. Навои. Первыми исполнителями стали ведущие солисты балета Екатерина Тихоновская, Данияр Хасманов, Анастасия Кистанова.

Работа над музыкальным материалом партитуры проходила в тесном творческом взаимодействии с дирижером-постановщиком Народной артистки Каракалпакстана А. Абдуллаевой. Наблюдать, и принимать участие как автор балетмейстер-режиссер в необыкновенном волшебном действе, когда из рукотворного макета, сделанного, часто из подручных материалов рождается спектакль необычайной сказочной красоты с декорациями и великолепной сценографией художника-постановщика Заслуженного работника культуры Узбекистана З. Батирова и костюмами художницы Л. Палвановой.

Такие ожившие декорации привлекают к себе внимание: впервые в театральной практике театра спектакль сопровождается мультимедийными эффектами. Для создания проекционных анимационных мультимедиа, внедрены современные 2D технологии. Созданию волшебной атмосферы способствует мастерская работа художника по свету В. Жураковского.

Такой процесс работы для балетмейстера-постановщика, был плодотворный, можно сказать: "это великое счастье!".

Именно в этот момент хореографического замысла возникает проблема творческого пространства, как интерпретировать то, что зритель только что увидел. Для того чтобы разобраться в трудностях понимания современного хореографического искусства, необходимо определить - что же означает этот термин "Балет". Балет (фр. ballet, от итал. ballare -танцевать) - вид сценического искусства, спектакль, содержание которого воплощается в музыкально-хореографических образах. В основе классического балетного спектакля лежит определённый сюжет, драматургический замысел. Именно это и побудило балетмейстера, посмотреть на опыт художественного творчества под другим углом. Так появился модернизм, который на сегодняшний день экспериментировал с формой и средствами самовыражения, пытаясь выразить особое видение балетного мира. Примечательно, что для создания своих творений балетмейстера привлекало



дополнительные средства, инновационные технологии, с учетом детской психологии.

В наше время балет остается все тем же волшебным искусством, в котором при помощи танца могут рассказать обо всех человеческих эмоциях. Он продолжает развиваться и расти, меняясь вместе с миром и не теряя своей актуальности.

В основу либретто спектакля лег пересказ братьев Гримм о красавице Белоснежке и семи гномах. Братья Гримм стали не только замечательными сказочниками, но и учеными филологами. Якоб Гримм и его брат Вильгельм остались живыми в памяти мировой литературы. Что их особенно отличает - это их общность и в жизни и в творчестве, длившаяся с детских лет и до смерти. В ученом мире их будут неизменно помнить не только за их значительный вклад в науку, но и за их искренние поступки, среди народа они останутся незабвенными, благодаря своим по сей день общедоступным, ценным во всем мире "Сказкам братьев Гримм".

Работа с артистами над хореографическими образами спектакля-сказки получила свои особенности. Работа начиналось с читки либретто и изучения биографии братьев Гримм, переходя в анализ фабулы и коллизии действия. Артистам необходимо проникнуться во все происходящее в действии, чтобы воплотить сказочные образы очаровательной маленькой принцессы по имени Белоснежки, её злой и коварной мачехи Королевы и др. Проходящий мимо принц, видит прекрасную девушку, и не может уйти не признавшись в своих чувствах. Воссоздать образы главных героев в хореографии, найти хореографическую лексику, так как каждый герой имеет свой определенный образ и место действия. Работа балетмейстера с артистом - это большой и творческий процесс. Для этого нужно большое творческое пространство для создания хореографических-художественных образов.

Хореографическое искусство балета побуждает задуматься, и сопереживать с героями балета-сказки. Зачастую, способ воплощения, который выбирают хореографические образы, рисунки танцев, лексики и пантомимы - необычные материалы, простота и изящество задумки могут поразить взрослого зрителя и детей, и не оставить его равнодушным.

Использованная литература:

1. Балет: Энциклопедия / Гл.ред. Ю.Н.Григорович. - М.: Сов. энциклопедия, 1981.
2. Герстнер Г. Братья Гримм // Из серии: Жизнь замечательных людей. - М.: Молодая гвардия, 1980. - 272 с.
3. Гримм Я., Гримм В. Сказки: Эленбергская рукопись 1810 года с комментариями. / Перевод с нем., вступление и комментарии А. Науменко. - М.: Книга, 1988. - 444 с.
4. Эмоциональный интеллект ребенка. Джон Готтман Джоан Диклер John Gotman - 1997/ перевод с нем., ООО " Манн, Иванов и Фербер" 2018г.
5. Искусство Балетмейстера Эволюция сценических форм танца Сольный танец/ Марчерков А.Л Марченкова А.И/ 2017г.
6. Искусство балетмейстера / Смирнов И.В./ 1986г.
7. Сочинение танца / Захаров Р./ "издательство" Москва 1989г.



## "БОБУРНОМА"ДА МУСИҚАГА ОИД ҚАРАШЛАР

**Узакова Муниса Абдурахим кизи**  
**БухДУ санъатшунослик факультети**  
**Мусиқа таълим йўналиши 3-босқич талабаси**  
**Телефон +998914012229 dilrabo68@mail.ru**

*Аннотация: Шарқ мутафаккирлари ижодида мусиқага муносабат масаласи алоҳида ўрин тутади. Жумладан, улуғ шоир ва саркарда Заҳриддин Бобур ҳам ўзининг "Бобурнома" номли қомусий асарида ўз даврида ижод этган мусиқа намояндалари ҳақида фикр юритган. Мақолада Бобурнинг мусиқага оид қимматли фарашлари "Бобурнома" асари асосида таҳлил этилган.*

*Калит сўзлар: Бобур, "Бобурнома", қомусий асар, соз, уд, най, ғижжак, тазкира, мақом.*

Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг мусиқага қизиққанлиги ва махсус "Мусиқа илми" рисоласини ёзганлиги маълум. Бироқ бу асар бизгача етиб келмаган. Шунга қарамай, мутафаккир шоирнинг мусиқага муҳаббати ўз даврида яшаган санъат аҳлига муносабатида акс этиб туради. Бу борада унинг "Бобурнома" қомусий асари яхши материал бера олади. Бобур тарихий шахслар ҳақида тўхталар экан, ўрни билан ўша даврдаги мусиқа аҳли номларини ҳам фахр билан тилга олади. Жумладан: "Аҳли фазл ва аҳли ҳунарға Алишербекча, мураббий ва муқаввий маълум эмаским, ҳаргиз пайдо бўлмиш бўлғай. Устоз Қулмуҳаммад ва Шайхий Нойи ва Ҳусайн Удийким, созда саромад эдилар, бекнинг тарбият ва таквияти била мунча тараққий ва шуҳрат қилдилар". Бунда шоир Алишер Навоийнинг мураббийлиги ҳақида гапирар экан, Устоз Қулмуҳаммад, Шайхий Нойи, Ҳусайн Удий ҳиротлик мусиқашуносларни тилга олади. Уларни тилга олиш орқали, аввало, мусиқага муҳаббатини намойиш этади, қолаверса, Навоийнинг санъат аҳлини қадрлаганлигини таъкидлайди. Ҳиротлик бу санъаткорларни Алишер Навоий тарбия этганлиги, шунинг учун улар соз чалишда шунинг учун улар шуҳрат қозонганликларини ҳам алоҳида таъкидлайди.

Асар тазкира характерида бўлганлиги учун, Бобур ўз даврида ижодкорлари ҳақида маълумот берар экан, уларнинг мусиқага муҳаббатини ҳам алоҳида фазилат сифатида эътироф этади. Жумладан, Биноий хусусида ёзади: "Яна Биноий эди, Ҳирийлиқтур□Бурунлар мусиқийдин беҳабар экандур, бу жиҳаттин Алишербек таън қилур экандур. Мусиқийда тавр ишлар боғлаптур, ул жумладин бир нақши бор, "Нуҳранг"га мавсум. Бу тўққуз рангнинг туганиши ва нақшнинг ялоси "Рост"тадур". Демак, Биноий шоир бўлиши баробарида мусиқага ҳам қизиққан. "Нуҳранг" га оҳанглар боғлаган, шундан "Рост" мақомидаги хизматлари тилга олинган.

Қул Муҳаммад Удий ўз даврида мусиқада шуҳрат қозонган. Бу ҳақда "Бобурнома"да ўқиймиз: "Яна Қулмуҳаммад Удий эди, ғижжакни ҳам хўб чолур эди. Ғижжакка бу уч қил тақти. Аҳди нағмадин ва аҳди создин ҳеч ким мунча кўп ва хўб пешрав боғлагон эмастур. Пешравдин ўзга ишларда мунча эмастур". Яъни Удий ғижжакни яхши чалган ва шу билан шуҳрат қозонган. У шу чолғу асбобида уч хил куй басталалаган.

Шайх Нойи ҳам ўз даврида, асосан, мусиқа билан шугулланган: "Яна Шайхий Нойи эди, удни ва ғижжакни ҳам хўб чолур экандур. Ўн икки-Ўн уч ёшидин бери найни хўб чолур экандур. Бир навбат Бадибуззамон мирзонинг суҳбатида бир ишни найдин хўб чиқарур, Қулмуҳаммад ғижжакта ул ишни чиқара олмас.Дерким,



ғижжак ноқис создур. Шайхий филҳол Қулмуҳаммаднинг илигидин ғижжакни олиб, ул ишни ғижжакта хўб ва поқиза чолур". Шайх Ноий, Бобурнинг ёзишича, най чалишга уста бўлган, ҳатто Қулмуҳаммад ғижжакда чиқара олмаган куйларни у найда чиройли ижро эта олган. Бобур яшаган даврда яшаган яна бир мусиқачи Шоҳқули Ғижжакийдир. Ўтибор берилса, у даврда кейинроқ ҳам мусиқачилар тахаллусларига ўзлари чаладаиган чолғу асбоби номини ҳам қўшганлар. Бундан уларнинг қайси созда маҳоратли эканликлари ифода этилган: "Яна Шоҳқули Ғижжакий эди, Ирокийдур. Хуросонга келиб соз машқ қилиб, тараққий килди. Хейли нақш ва пешрав ва ишлар боғлабтур".

"Бобурнома"да яна ўқиймиз: "Яна Хусайн Удий эди. Удни мазалиқ-мазалиқ нималар айтур эди. Уднинг торларини якка қилиб бу чолибтур". Кейинги мусиқачининг тахаллуси уд чолғу асбоби билан боғланган. Маълумки, уд ҳам қадимий чолғу созларидан бўлиб, ундан, асосан, маҳзун оҳанглар таралган. Бобурнинг ўзи ҳам мусиқани ҳис этгани ҳолда Хусайн Удийнинг уд чалиш услубини тушунтириб беради. Бобур яна бир мусиқачи ҳақида ёзади: "Яна мусаннифлардин Фулом Шодий эди, Шодий хонанданинг ўғли эди, агарчи соз чолур эди, вале бу созандалар чаргасида чолмас эди. Яхши савтлари ва нақшлари бор. Ул замонда онча нақш ва савт боғлар киши йук эди". Фулом Шодийнинг санъаткор оиласидан чиққанлиги, унинг созни созандалар бирга чалмаслиги, ўз мусиқа-куйлари борлиги Бобур томонидан таъкидланган.

Бобурнинг ўзи ҳам мусиқага жуда қизиққан. Бу ҳақда "Бобурнома"да ўқиймиз: "Неча маҳал эди, мундок нималарга машғуллуқ қилмайдур эдим. Манга ҳам дағдаға бўлдим, бир нима боғлағаймен. Бу тақриб била "Чоргоҳ" савтини боғладим. Нечукким, маҳаллида мазкур бўлғусидир". Улуғ шоирнинг эътирофича, у бир муддат мусиқа билан шуғулланмаган. Кейин эса у куйлар яратишга ҳаракат қилганлиги, бунинг натижаси сифатида "Чоргоҳ" мақомига савтлар боғлаганлиги маълум бўлади. Кузатишларимиз шуни кўрсатадики, Бобур ўзининг машҳур "Бобурнома" асарида адабиёт аҳллари қаторида санъат намояндалари ижодига ҳам алоҳида эътибор қаратганлиги аёнлашади. Қолаверса, мутафаккир шоир қарашлари унинг мусиқанинг чуқур идрок этганлигини ва ўзи ҳам бу нафис санъат билан шуғулланганлиги кўрсатади.

Адабиётлар:

1. Акбаров И. Мусиқа луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1997. -384 б.
2. Заҳриддин М.Б. Бобурнома. - Тошкент: Фанлар Академияси, 1960. - 504 б.





## CHINGIZ AXMAROV IJODIDA SHARQ ALLOMALARI OBRAZI

**Egamberdiyev Samandar Maxmarijabovich**

**O'zbekiston Fanlar akademiyasi**

**San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti katta loharanti**

**Tel:+998906080939.**

**egamberdiyevsamandar@yandex.com**

*Annotatsiya: 1940-60-yillarda O'zbekiston tasviriy san'atida sharqning buyuk olimlari va allomalarning obrazlari aks ettirala boshlanishi, Alisher Navoiy va "Xamsa" dostoni qahramonlarining obrazlari tasvirlari, bu jarayonda buyuk rassom Chingiz Axmarovning ishtiroki va o'rni haqida ilmiy xulosalar o'rin olgan.*

*Kalit so'zlar: Chingiz Axmarov, nastalgiya, devoriy suratlar, xrestomatik portretlar, sotsrealizm, flakon, sharqona miniatyura.*

O'tgan asrning 1940-yillaridan boshlab o'zbek tasviriy san'atida yetuk tarixiy shaxshlar va mutaffakirlarning siymolariga mu'rojaat qilish bilan bir qatorda, sobiq sho'ro tarixini ijtimoiy jihatdan tanqidga olish birgalikda olib borilgan. Bir tomondan, 1940-1960-yillardagi sovet jamiyatining jipsligini saqlash yo'lidagi siyosat, Respublikalardajadallashib borayotgan milliy va madaniy o'zlikni anglash tendensiyalarini hisobga olgan holda markaziy hokimiyat Respublika xalqlarining ilg'or madaniy merosini umumjahon boyligi deb e'lon qilish orqali davlatlarning milliy madaniy siyosati tamoyillarining baynalminal qadriyatlarga asoslanganligini ko'rsatishga uringan va oldinga surgan g'oyalari rasmiy milliy siyosat tamoyillariga mos keluvchi tarixiy shaxslar madaniy meros bisotidan alohida ajratib ko'rsatilgan. Jumladan, O'zbekistonda Alisher Navoiy, Gruziyada Shota Rustaveli, Ozarbayjonda Nizomiy Ganjaviy, Tojikistonda Firdavsiy va Rudakiy kabi buyuk shoir va mutafakkirlar umumittifoq e'tirofiga sazovor bo'lib, keng targ'ib qilingan .

1940-yillarda san'at arboblarning Alisher Navoiy ijodiy merosiga murojaati rassomlarning badiiy ongida ikki qarama-qarshi oqimni paydo qiladi. Birinchisi, son jihatdan ustunlikni tashkil etgan ijtimoiy realizm tarafdorlari, formalizm va dekorativizmga qarshi bo'lgan V.Kaydalov boshchilik qilgan oqim. Rassom 1940-yilda Alisher Navoiyning xrestomatik portretini yaratgan va o'rta asr shoiri obrazining "to'g'ri va haqqoniy talqini" uchun respublika mukofotiga sazovor bo'lgan. Ikkinchi oqim tashabbuskori tarix va milliy madaniy merosning aksini ifodalovchi yangi badiiy lirik-romantik talqin muallifi Chingiz Axmarovdir. O'zbek xalqining boy madaniy merosi Ch. Axmarov ijodidagi muayyan obrazlar silsilasida keng namoyon bo'lgan. Hukmdorlar va shoirlar, davlat arboblari va sarkardalar, me'morlar va mashhur olimlar, donishmandlar va o'rta asr sharq go'zallari Ch. Axmarov ijodining asosiy mavzularidan bo'lib, ularning katta qismi 1961-1962 yillarda yaratilgan. Bu davrda ijodkor va ziyolilarga berilgan qisman ijodiy erkinlikning asosiy sababchisi 1959-yilda respublika rahbari bo'lgan Sharof Rashidov edi.

Aynan shu davrda O'zbekistonda san'at va adabiyot arboblarning yangi talqindagi izlanishlariga nisbatan bag'rikenglik muhiti yuzaga kelib, A. Navoiy teatri (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri) Ch. Axmarov yaratgan devoriy suratlarida ilk bor aks etgan o'rta asr Sharq madaniy an'alaridan milliy o'ziga xoslikni izlash mohiyati o'z kurtaklarini namoyon qildi.

Chingiz Axmarov ijodida Alisher Navoiy obrazini talqin etish asosiy o'rin egallaydi, uning liriko-epik asarlari rassomning lirik-romantik intonatsiya va nafis ranglar bilan, o'tmishdagi boshqa tarixiy shaxslar talqinidan ajralib turadi. 1968 yilda shoirning 525-yilligi munosabati bilan Ch. Axmarov shoir hayotining turli bosqichlariga bag'ishlab asarlar yaratdi. Bular "Bolalikdagi Navoiy"(1965 yil. Mato, tempera. 100x100sm. №200.



Badiiy akademiya fondi.) "Yosh Navoiy" (1968 yil.mato, tempera. 110x110sm. Toshkent. Ozbekiston davlat san'at muzeyi), "Alisher Navoiy talabalari bilan" (1968 yil.mato, tempera. 250x140sm. Toshkent. Ozbekiston davlat san'at muzeyi), "Shoir va atirgullar" (1968 yil. Mahobatli devoriy suratga eskiz. Karton, tempera. 53x49sm. Tatariston Respublikasi tasviriy san'at muzeyi) va boshqalar□ Yo'qoridagi asarlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin: Chingiz Axmarov Alisher Navoiy obrazini tasvirlashda rang-tasvirning badiiy va plastik yechimlaridan moxirona foydalangan, asarlariga shoirona lirik-romantik ohangdorlikni singdirgan, o'rta asr sharq miniatyura uslubining nozik unsurlari ham aks ettirgan. Jumladan, "Shoir va atirgullar" asarida Alisher Navoiyning keksaygan holati ifodalangan bo'lib, obrazga psixologik yondashuv orqali, horg'inlik va xotiraviy qumsash (nostalgiya) holatini kuzatish mumkin.

Chingiz Axmarov 1960-yillar boshida Mirzo Ulug'bek obrazini yaratish ustida faol ish olib boradi, jumladan shoir Maqsud Shayxzodaning (1962 yil) "Mirzo Ulug'bek dramasi asariga kitob uchun rasmlar ishlaydi, rejissor Latif Fayziyevning "Ulug'bek yulduzi" (1963-1964-yillar) filmiga liboslar bo'yicha rassom bo'lib ishlaydi, 1964-1965-yillarda Samarqanddagi Ulug'bek muzeyining ichki qismini ulkan panellar bilan bezatadi va 1970- yilda usha devoriy suratlardagi saroy ziyofati sahnasida Ulug'bekning surati "Yulduz" kafesining ichki qismida aks etadi. Keyingi yillarda Ch. Axmarov yana Ulug'bek obraziga qaytadi va endi u voqea mazmuniga qiziqmaydi, balkim olim, hukmdor va shoirona psixologik holatining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Rassom hayoti va ijodi yorqin ammo fojeali bo'lgan tarixiy shaxsni qaysidir jihatdan "insonlashtirish" istagi borligi sezilib turadi. Ammo 20 yildan so'ng, ya'ni 1993-yilda yaratilgan "Ulug'bet portreti"da hukmdor va munajjimning 53 yil umr ko'rganligini inobatga olgan holda, ehtimol Ulug'bek boshqaruvining so'ngi yillarini tasvirlagandir? Ushbu portretida aks etgan hukmdor-olimning baquvvat nigohi - Ulug'bek boshidan kechirgan og'ir hayot voqealariga guvohlik beradi.

1980-yillarda Chingiz Axmarov Buxoro shahridagi Gaz ishchilari saroyining ichki qismidagi peshtaxta uchun eskizlar yaratadi, bunda Ibn Sino va Al-Xorazmiy obrazlarini yaratadi. Jumladan, Ibn Sinoning dastgohli portretida buyuk olim va tabibning tasviri biroz sodda shaklda idish va flakon ichidagi embrion bilan tasvirlangan. Matematik Al-Xorazmiy qiyofasini tanib olish uchun uni uchburchak yoki aylana geometirik shakllarni ushlab turgan holatda tasvirlaydi, Ch.Axmarov ushbu portretlarning orqa fonini moviy ko'k ranglar va mayolik me'moriy bezaklardan foydalangan holda tasvirlagan. 1981-yilda ishlangan "Beruniy va Ibn Sino" (mato, tempera. 115x115sm. Badiiy akademiya fondi.) portretida ikki olimning ilmiy munozara qilayotgan holati mohirona tasvirlangan.

Xulosa o'rnida shuni bayon qilishimiz mumkinki, Chining Axmarovning sharqning buyuk allomalari: Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa□ asarlari undan keyingi tarixiy mavzuga qiziquvchi rassomlar uchun badiiy malakaviy maktab bo'lib xizmat qildi va tarixiy, milliy o'zlikni anglashda yosh ijodkorlar avlodi uchun klassik na'munalar bo'lib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov A.A. Нетленный свет. Жизнь и творчество Чингиза Ахмарова. Тошкент. 2018.
2. Hakimov A.A. Новая узбекская живопись. Тошкент. 2015.
3. Ahmedova N.R. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. Тошкент. 2004.



## УЗБЕКСКИЙ ТАНЕЦ - НАЦИОНАЛЬНОЕ ДОСТОЯНИЕ

**Коркмас Сагатович Сагатов**  
заслуженный деятель искусств Узбекистана,  
народный артист Каракалпакстана  
старший преподаватель кафедры хореография  
Государственная академия хореографии Узбекистана  
+998903219838  
kurkmas.sagatov@mail.ru

*Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы бережного сохранения национального танца, занимающего важное место в духовной жизни общества.*

*Ключевые слова : хореография, узбекский танец, наследие, мастера, профессиональное искусство, балетмейстер.*

Хореографическое искусство является неотъемлемой составной частью духовной жизни современного Узбекистана и играет важную роль в формировании гармонично развитой личности. Оно является одной из тех сфер художественной деятельности, где поиски молодого поколения находят своё органическое сочетание с богатым и многообразным творческим опытом, накопленным предшествующими поколениями в области танцевального искусства.

Выдающиеся мастера узбекского танцевального - Уста Олим Камилов, Тамара Ханум, Мукаррам Тургунбаева, Исохор Акилов, Гавхар Рахимова опираясь на традиции народного танца, создали лучшие образцы национального народно-сценического танца, послужившие бесценным творческим наследием для последующих поколений деятелей танцевального искусства.

Новый импульс этот процесс получил в период независимости. Одним из приоритетных направлений политики нашего государства было определено воспитание гармонично развитой молодежи, формирование у подрастающего поколения таких качеств, как преданность идеям национальной независимости, любовь к Родине, причастность к судьбе народа, самоотверженный труд ради процветания страны. В этой связи, усилилось внимание к вопросам духовности и просветительства, более полного удовлетворения художественно-эстетических запросов общества и, как следствие, к возрождению исконно национальных традиций, имеющих многовековую историю.

Несмотря на сложную экономическую ситуацию, связанную с переходом на рыночные отношения, были созданы благоприятные условия для наиболее полного раскрытия творческих способностей молодых талантов, овладения ими богатым творческим опытом предшествующих поколений, продолжения и развития лучших традиций национального искусства, в том числе и в области танцевального искусства.

Реализацию целого комплекса мер, направленных на создание благоприятных условий для развития всех видов и жанров национального искусства, в том числе хореографического, предусматривает Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2018 г. "Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры Республики Узбекистан".

В частности, данным Постановлением предусмотрено проведение республиканского смотра-конкурса "Миллий рақс ижрочилари" ("Исполнители национального танца") имени Мукаррамы Тургунбаевой. Установлено, что данный смотр-конкурс будет проводится один раз в два года, начиная с октября месяца



2019 года.

Деятельность профессиональных и самодеятельных танцевальных коллективов занимает важное место в духовной жизни общества. Их выступления в театрализованных концертах и массовых представлениях в дни всенародных праздников пользуются неизменным успехом у зрителей. Высокое профессиональное мастерство танцевальных ансамблей является свидетельством государственной заботы о развитии хореографического искусства. Подобные конкурсы призваны сыграть важную роль в раскрытии талантов молодых дарований, выявлении их творческого потенциала.

В октябре месяце 2019 года в Ташкенте состоялся заключительный этап Республиканского смотра - конкурса "Исполнители национального танца" имени Мукаррамы Тургунбаевой, организованный Министерством культуры Республики Узбекистан. Ему предшествовали отборочные смотры-конкурсы, которые проходили во всех областях республики, Республике Каракалпакстан и городе Ташкенте.

Мне была оказана высокая честь возглавить жюри смотра-конкурса, в состав которого вошли известные мастера узбекского танца, балетмейстеры, хореографы, искусствоведы, журналисты. Смотр - конкурс позволил не только продемонстрировать достижения, но и выявить проблемные моменты, которые необходимо будет устранить при организации и проведении подобных смотров-конкурсов в дальнейшем.

В целом, подводя итоги творческого форума, необходимо отметить, что, по сравнению с предыдущими смотрами-конкурсами, его организаторы более строго подошли к отбору участников конкурса. В программу смотра-конкурса вошли лучшие образцы узбекского классического танца, такие, как "Тановар", "Муножот", "Пахта", "Пилла", "Рохат", воплощённые в творческом наследии Мукаррам Тургунбаевой, которые требуют кропотливой постановочной работы, овладения своеобразной лексикой национального танца.

Обращение конкурсантов к подобным хореографическим произведениям свидетельствует о том, что в детских школах музыки и искусства, имеющих хореографические классы, а также в танцевальных студиях, действующих при Центрах культуры, повысилось качество обучения узбекскому танцу.

Конкурсанты показали не только высокую технику исполнения танцевальных номеров, но и средствами художественной выразительности сумели воплотить одухотворённость созданного ими хореографического образа, передать его эмоциональное настроение и внутреннее переживание. Тот факт, что юные конкурсантки и их наставники выбрали для конкурсного показа сложные для постановки и исполнения танцевальные произведения, говорит о том насколько ответственно они отнеслись к участию в столь престижном смотре.

В конкурсной программе приняли участие представители из всех регионов нашей страны, что также свидетельствует о том, насколько серьёзно отнеслись к смотру представители учреждений культуры на местах. Не остались без внимания жюри сценические костюмы танцовщиц, изготовленные по классическим образцам, в которых выходили на сцену выдающиеся мастера узбекского танца. Высоким качеством отличалось и музыкальное оформление танцевальных номеров.

По итогам просмотров, победителями смотра-конкурса имени народной артистки Узбекистана Мукаррам Тургунбаевой стали следующие финалисты:

- 1-е место - Алина Бабешко, студентка ТГВШНТИХ;
- 2-е место - Оксана Давлетова, учащаяся Школы искусств города Ургенча;
- 3-е место - Дилноза Мамадалиева, учащаяся Школы искусств города Намангана.



Жюри также отметило работу балетмейстера, композитора, художника по костюмам. В различных других номинациях отмечены:

"За оригинальную постановку" - Барно Халикова (Гулистан)

"За музыкальную композицию" - Акбарали Аскарлов (Наманган)

"За музыкальное исполнение" - Даврон Акбарбеков

"За идентичность костюма" - художник по костюмам из Каракалпакии

"Приз зрительских симпатий" - Тореева Жанар Кутлимурот кизи

"За эмоциональное исполнение" - Ахмедова Ситора

"Юное дарование" - Нарзуллаева Зухра Хайрулло кизи

"Юное дарование" - Нарзуллаева Фотима Хайрулло кизи

"За артистизм" - Лолита Асадова.

В предыдущие годы смотры - конкурсы проводились в концертных залах либо на театральных сценах города, благодаря чему в качестве зрителей могли участвовать многие поклонники и ценители узбекского танцевального искусства. Кроме того, живая реакция и аплодисменты зрительного зала являлись своеобразным критерием оценки мастерства танцовщиц. В нынешнем году, в порядке эксперимента, организаторы смотра - конкурса проводили его в телецентре "Медиа Марказ".

По опыту предыдущих смотров-конкурсов, после подведения итогов и объявления результатов конкурса, проводились "беседы за круглым столом", на которых обсуждались актуальные проблемы современного состояния и перспективы развития узбекского национального танцевального искусства. В данном случае такая беседа не состоялась, хотя необходимость её проведения была очевидной.

Забота нашего государства о развитии культуры и искусства, в частности, узбекского танцевального искусства, несомненно, вдохновляет мастеров и молодых исполнителей на новые творческие свершения.



## ТРАДИЦИОННОЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ИСКУССТВО В ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА

**А.А.Магдиева**

**старший преподаватель кафедры хореографии  
Государственной академии хореографии Узбекистана  
+998909382683  
arinaagarovna@mail.ru**

### *Аннотация*

*В данной статье рассматриваются тема развития традиционного и профессионального искусства. Необходимость активного привлечения подрастающего поколения к творческой деятельности для раскрытия творческих способностей.*

*Ключевые слова: искусство, танец, характер, специфика, народность, события, даты, мероприятия культура, образ, фестиваль.*

С первых дней независимости в нашей стране уделяется огромное внимание возрождению духовной культуры народа, в том числе сохранению и развитию уникального танцевального искусства. Народный танец - одна из наиболее значимых духовных и эстетических ценностей культурного богатства узбекского народа. Танец существовал и существует в культурных традициях всего человеческого общества. За всю историю человечества он видоизменялся, и, как всякое искусство отображал жизнь в образно-художественной форме, в её культурном развитии. В данное время хореографическое искусство охватывает как традиционное народное, так и профессионально-сценическое исполнение. Танцевальное искусство присутствует в культуре каждого этноса и этнических групп.

С изменением социального строя и условий жизни менялись характер и тематика искусства, в том числе и народная хореография. Сохранились до наших дней: лирические героические, комические, медленные и плавные или вихревые, огневые, массовые и сольные пляски, в которых ярко был раскрыт образ наших современников. В репертуарах многочисленных ансамблей народных танцев, профессиональных и самодеятельных, исполняются танцы, посвященные различным темам и историческим событиям в жизни народа. С профессиональным искусством танца мы встречаемся в оперном и балетном театре, театре музыкальной комедии, на площадках эстрады и цирка, в киноискусстве, а также в драматическом театре.

Обращение к народному творчеству, как к испытанному временем средству раскрытия нераспознанных возможностей современного человека, имеет в настоящий момент, глубокий социальный смысл, который характеризуется стремлением людей познать свои исторические корни. Сегодня, в эпоху глобализационных процессов, очень остро стоит вопрос воспитания у молодого поколения бережного отношения к родным истокам, истории, без чего невозможно построить социальное общество с высоким духовным началом.

Узбекистан, расположенный на Великом шелковом пути, является страной с богатым культурным наследием, имеющим многовековую историю.

Своими богатыми духовными ценностями, большими достижениями в науке, образовании, художественном творчестве Узбекистан внес и продолжает вносить весомый вклад в развитие человечества.



В условиях независимости искусство массовых представлений приобрело новое содержание. Как известно, народные гуляния и празднества - так называемые "сайили" - испокон веков занимали важное место в культурной жизни народов, проживавших на территории нынешнего Узбекистана. Театрализованные и тематические праздничные представления, исполняемые на огромных сценических площадках под открытым небом, стали неотъемлемой составной частью духовной жизни общества. Народные праздники несут в себе идею мирного созидания, свободолюбия, благополучия, интернационализма, доброты, щедрости и гостеприимства, раскрывают прекрасные душевные качества, присущие всем народам, проживающим в независимом Узбекистане.

На протяжении 28 лет Независимости Республики Узбекистан, осуществлены постановки десятков массовых театрализованных представлений, посвященных знаменательным датам в истории нашей страны. Среди наиболее значительных постановок следует назвать ежегодные массовые праздничные торжества, посвященные Дню Независимости Республики Узбекистан, древнему весеннему народному празднику "Навруз", международному музыкальному фестивалю "Шарк тароналари".

С 2018 года проводится международный фестиваль традиционного искусства "Маком", с 2019 года - международный фестиваль традиционного искусства "Бахши".

В театрализованных представлениях, отражающих те или иные события древней истории нашего народа, танцевальные композиции несут важное смысловое содержание. В соответствии с сюжетной линией, они включают в себя элементы национальных обрядов, народных игр и развлечений, инсценировки воинских сражений, спортивных состязаний.

Массовый праздник - это прежде всего народный праздник, воплощающий в себе душу и чаяния народа, выражающий его настроение. Поэтому танец как компонент праздника - это истинно народное искусство.

Хореографическое искусство является неотъемлемой составной частью духовной жизни современного общества. Оно является той сферой социальной деятельности, где творческий опыт молодого поколения находит своё органическое сочетание с богатым и многообразным художественно-эстетическим опытом в области народного творчества и профессионального искусства, накопленным предшествующими поколениями на протяжении многовековой истории. В современных условиях особую актуальность и значимость приобретает необходимость активного привлечения подрастающего поколения к творческой деятельности, как важного компонента образования и организации культурного досуга и создание необходимых условий для раскрытия их творческих способностей.

#### Литература:

1. Кадыров М.Х. Труды по истории зрелищных искусств Узбекистана. Т. 2013
2. Шароев И.Я. Режиссура эстрады и массовых представлений. - М. 2012.
3. Вашкевич Н.Н. История хореографии всех веков и народов. М.2009.
4. Хореографическое искусство. Справочник. М. 2005.



## МУЗЕЙ ФОНДЛАРИНИ САҚЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Курязова Дармонжон Тураевна**  
**Камолиддин Бехзод номидаги МРДИ профессори, т.ф.н.**  
**Телефон: +998 (94) 666 59 68**  
**tura268@mail.ru**

*Аннотация: Ушбу мақолада музей экспонатларини сақлаш муаммолари ўрганилган. Шунингдек, экспонатларнинг физикавий-механик, кимёвий хусусиятларини инобатга олган ҳолда, уларнинг эскириш жараёнини секинлаштиришда қўлланиладиган услублар кўриб чиқилган. Мазкур муаммоларнинг сабаби ҳам тадқиқ этилган.*

*Калит сўзлар: эскириш жараёни, ҳарорат, намлик, музей, экспонат, экспозиция, сақлаш, сақловхона, предмет, ёруғлик тартиби.*

Музейлардаги асосий муаммолардан бири, турли хил тарихий ва маданий ёдгорликларни ўз ҳолича сақлаб қолишдан иборатдир. Сақлаш деганда, экспонатларнинг узоқ вақт сақланиши учун шароит яратиш бериш тушунилади. Барча предметлар физикавий-механик ва кимёвий ўзгаришларга яъни табиий эскиришга маҳкум. Бу жараёнда уларга ёруғлик ва хаво харорати салбий таъсир кўрсатади. Шунингдек, музей предметларига биологик зараркунандалар ҳам таъсир кўрсатиши мумкин [1. -С. 170]. Музейда биринчи навбатда иқлимни, яъни харорат, намлик ёритиш ва тозалик уйғунлигини яратиш муҳимдир. Харорат - намлик тартибининг беқарорлиги, турли фаслларда кескин ўзгариб туриши предметларнинг эскириш жараёнини тезлаштирувчи асосий омиллардан биридир. Харорат ва намлик даражасининг предметга таъсир кучи ва тавсифи, кўплаб омилларга боғлиқ бўлиб, предмет тайёрланган материал, унинг тузилиши, музей келтирилгунга қадар турган муҳити шулар жумласидандир. Чарм, ёғоч, газлама, қоғоз ва бошқа органик гигроскопик материаллардан қилинган буюмлар ҳам юқори, ҳам паст намликдан талофат кўради. Юқори намликда бу материаллар осонликча шишади, толалари орасидаги зичлик бузилади ва предмет деформацияланади. Юқори намлик моғор пайдо бўлишига олиб келади, бу эса органик материалларни йўқ қилади. Ҳаддан зиёд қуруқ ҳаво эса уларнинг кўпларини мўрт қилади. Айниқса, ҳароратнинг кескин ошиб ёки пасайиб кетиши, рангтаъсир, ҳайкалтарошлик, ёғоч уймкорлиги, шунингдек турли кенгайиш коэффициентига эга материаллардан яратилган предметлар учун жуда ҳавфли [2. -С. 402-403].

Музейда намликнинг кескин ўзгариши ҳам экспонатларга салбий таъсир кўрсатади. Ҳар бир ўзгариш юз берганда материалнинг тез таъсирланувчи юза қатлами, ички қатламига нисбатан деформацияланади. Ҳарорат-намлик тартибининг ўзгарувчанлиги асосан органик материалларни емиради, ноорганик материаллардан биринчи бўлиб, археологик предметлар емирилади. Музейга келтирилган предметларнинг ҳарорат-намлик тартибини аниқлаш учун, унинг олдинлари қандай шароитларда сақланганлигини билиш зарур. Масалан, ер ости сувлари таъсирида бўлган археологик шиша буюмга пасайтирилган намлик зарур, нам ердан қазиб олинган археологик ёғоч буюмни эса жуда кучли намликда сақлаш лозим. Ҳарорат-намлик тартибининг энг қулай параметрлари мутахассислар томонидан ўрганилади. Турли музей предметлари бир хил бўлмаган шароитларни, сақлаш мосламаларини талаб этади. Фонд сақловхоналари ва экспозициядаги ҳавони ифлосланишига қарши кураш, шунингдек ҳарорат-намлик тартибининг зарур параметрларини сақлаб туриш учун ҳавони чангсизлаштирадиган, тозалайдиган, ҳароратни, намликни меъёрида ушлаб турадиган замонавий





ускуналардан фойдаланилади. Музей ашёларининг ҳарорат-намлик тартибини назорат қилиш психометр, гигрометр, термометр ёки ўзи ёзувчи ускуналар-гигрограф ва термографлар ёрдамида амалга оширилади. Ускуналарнинг кўрсатмалари суткасига 2 марта махсус дафтарга регистрация қилиниши лозим.

Предметларнинг табиий эскиришини олдини олиш учун, ёруғлик тартибига ҳам риоя қилиш зарур [3. -С. 138]. Чунки, ёруғлик таъсирида, айниқса, ультрабинафша нурлари остида, предметлар билан фотохимёвий ўзгаришлар содир бўлиши: улар сарғайиши, қорайиши, оқариши ёки бутунлай рангсизланиши мумкин. Ёруғлик туфайли рўй берадиган физикавий ўзгаришлар, материал структурасининг емирилишида, мустаҳкамлигини йўқотишида, қисқариб қолишида намоён бўлади.

Музей предметларини юқори сақлов тартиби билан таъминлаш учун уларни ҳаво ифлосланишидан ҳимоя қилиш зарур, чунки бу предметларнинг емирилиши ва эскириш жараёнларини келтириб чиқаради. Чанг ва қурум сув шимадиган материалларнинг тешикларига кириб, предметдаги намликни ушлаб туради, кимёвий жараёнларни кучайтиради, рангтасвир асарларининг бўёқли қатламга қалин кирланиш беради. Чанг-биологик зараркунандалар учун яхши муҳит яратиб беради. Музей коллекцияларини ҳаво ифлословчиларидан ҳимоя қилишнинг асосий усули-фонд хоналарни герметик қилиб ёпиб, кондиционерлардан, ҳавони филтрлайдиган мосламалардан фойдаланидир. Шунингдек, предметларни алоҳида чехол, футляр, папка кабиларга солиб қўйиш талаб этилади. Музей экспозицион майдонлар, хоналари, техник мосламалари тез-тез тозалаб турилади.

Предметларни микроорганизмлар, ҳашоратлар ва кемирувчилар ҳам шикастлантириши мумкин, шунинг учун биологик тартибга ҳам риоя қилиш зарур. Ҳарорат намлик тартибининг бузилиши, чанг, озиқ-овқат омборхоналарининг музей биносига яқин жойлашган бўлиши, қайта ишлов берилмасдан қабул қилинган, зарарланган предметлар-биологик зараркунандаларнинг кўпайишига олиб келади. Микроорганизмлар - бактериялар ва моғор кўп турдаги предметларни емиради. Биринчи бўлиб органик материаллардан қилинган, яъни рангтасвир, қоғоз, газлама, суяк, ёғоч предметлар зарарланади. Моғорнинг барча турлари кетгазиш қийин бўлган доғ ҳосил қилади, баъзилари эса толаларни емиради. Намлик 70%, ҳарорат +200С бўлса моғорлаш жараёни тезлашади. Моғор замбуруғларини юқтириш, замбуруғ бўлаклари ва ҳаво орқали ўтадиган споралар ёки зарарланган предметлар билан алоқада бўлганда содир бўлади. Моғорлашни олдини олиш мақсадида музей ускуналари вақти-вақти билан формальдегиднинг 2% спиртли аралашмаси билан артиб турилади.

Металл, шиша ва керамика буюмларидан бошқа музей предметлари учун, ҳашоратлар яъни турли қўнғизлар, куялар, сувараклар, пашшалар ўта ҳавфлидир. Улар музейга ойналардан, эшиклардан ёки музейга келтирилган предметлар орқали киради. Уларни йўқ қилиш учун суюқ инсектицидлардан фойдаланилади. Ҳар бир музейда предметларни зарарланганлигини текширадиган махсус хона ва зарарсизлантирадиган махсус камера бўлиши керак. Биологик зараркунандаларни йўқ қилиш учун музейларда ишлатиш учун рухсат этилган воситалардан фойдаланилади. Ҳашоратларни йўқ қилишда эса албатта таъмирловчи қатнашади. Сичқон ва каламушлар ҳам музей предметлари учун ҳавфли бўлиб, улардан сақлаш чора-тадбирлари кўрилади. Предметларда доимий равишда эскириш жараёни кузатилиши табиий ва уни тўхтатиб бўлмайди, фақат бу жараённи секинлаштириш ва минимумга тушириш мумкин холос [2. -С. 107].

Хулоса қилиб айтганда, предметларнинг сақлаш шароитини таъминлаш, фонд сақловчилари ва таъмирловчилар олдида турган муҳим муаммолардан бўлиб,



улар шароит яратишга жавобгар шахс ҳисобланадилар. Музей ходимлари доимо музей тўпламларини текшириб, улар орасидан консервация ва реставрацияга мухтожларини йиғиб боришлари зарур. Кўрик натижалари махсус рўйхатга киритилиб, предметнинг сақланиш ҳолати ёзиб бориш керак. Музейларнинг аксарият қисми мослаштирилган биноларда жойлашганлиги ҳамда мутахассис кадрларнинг етишмаслиги сабабли, предметларни эскириш жараёнини секинлаштириш учун, юқорида қайд этилган шароитларини яратиб бериш муҳим муаммолардан бири бўлиб қолаётганлигини таъкидлаш жоиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Музееведение. Музеи исторического профиля. - Москва: Высшая школа, 1988. - С. 170.
2. Юреньева Т.Ю. Музееведение. - Москва: Академпроект, 2003. - С. 402-403.
3. Тельчаров А. Основы музейного дела. - Москва: Омега, 2005. - С. 138.
4. Kuryazova D.T., Ergashev B.E., T.I.Maxmudov. Jahon muzeyshunosligi. Ma'ruzalar kursi. - Samarqand, SamDU, 2015. - B. 107.



## МУСИҚАЛИ ТЕАТРДА РЕЖИССЁР ВА РЕПЕРТУАР МАСАЛАСИ

**М.Исокова**

**Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти**

**мустақил изланувчиси.**

**Телефон: +998909004049**

**matluba73luba@mail.ru**

*Аннотация: Огаҳий номидаги Хоразм вилояти мусиқали драма театрнинг репертуарида маҳаллий драматургия асарлари билан бирга таниқли ижодкорларнинг пьесалари ўзига хос режиссёр топилмалари билан саҳналаштирилади. Мақолада ана шу жараёнларга назар ташлашни жоиз, деб билдик.*

*Калит сўзлар: драматург, режиссёр, актёр, репертуар, пьеса, асар, таржима, репетиция, театр, пардозчи.*

"Муаллифнинг ҳар бир асари режиссёр талқинига боғлиқ. Режиссёр ҳам спектакл муаллифи ҳисобланади. Қоғоздаги сўзларга жон ато қилган, умр берган, ўз заковати билан жонли саҳна асарини ижодий жамоа билан яратган режиссёр ҳисобланади. Режиссёр ва муаллиф биргалиги, маслакдошлиги катта рол ўйнайди. Режиссёр дарди драматург дарди билан ҳамоҳанг бўлиши керак". Бу борада, режиссёрлик топилмалари спектакл муваффақияти учун хизмат қилиши табиий ҳол албатта.

Огаҳий номидаги Хоразм вилояти мусиқали драма ва комедия театрида кўпроқ маҳаллий драматургларнинг асарларига қўл урилади. Репертуардаги асарлар барчаси томошабинларга яъни бугунги кун талабига жавоб берадиган даражада саҳналаштирилган.

Энди шуни ҳам айтиб ўтиш жоизки, репертуар масаласига бир оз тўхталадиган бўлсак, Огаҳий театрида сўнгги йилларда спектакллар саҳналаштириш олдинги йилларга нисбатан камайгандек. Бу масалани ечишда, театрга тамал тошини қўйган етук актёрларимизни "Устоз-шоғирд" анаънасини давом эттиришдир. Театрга ёш, ғайратли, кучга тўла устоз кўрган тажрибали театр учун фидоий мутахассисларни жалб қилиш асосий масаладир.

Бугунги кунда театрда бош режиссёр халқ артисти Ҳажи Ортиқов ва театрнинг саҳналаштирувчи режиссёри Жўрабек Рўзметовлардир. Миллий театрда устози Валижон Умаровнинг ўғитларини олган, ҳар ҳолда Республиканинг отахон театри саҳнасида роллар ижро этаётган Яйра Абдуллаева, Зикир Муҳаммаджонов, Рихси Иброҳимова, Тўти Юсупова, Тўйчи Орипов ва бошқа қатор актёрларнинг ҳатти-ҳаракатлари, образ устида ишлаш маҳоратлари ёш режиссёр учун катта бир мактаб бўлган, десак муболаға бўлмайди. Чунки, Огаҳий театрида устозидан олган билимларини қўлласа, актёрлар билан баҳс-мунозара қилса бўладиган билим ва малакага эгадир.

Ж.Рўзметов театрда Жўра Маҳмудовнинг (2010) "Уч дангаса" эртак пьесасини саҳналаштиради. Саҳналаштириш жараёнида театрнинг ёш актёрлари (Урганч санъат коллежи талабалари) иштирок этишади. Бу жараёнда театрда капитал реконструкция ишлари олиб борилаётган эди. Режиссёр бу борада бироз қийинчиликларга, тўсқинликларга учрасада, спектаклни муваффақиятли чиқиши учун ҳаракат қилган. Аммо спектакл коллеж, лицей саҳналарида қўйишга тўғри келади. Мусиқий комедияда бор йўғи бешта образ қатнашади. Семиз, Ориқ, Новча, Чаққон, Ортиқбой. Асосан уч дангасанинг бошидан ўтказганлари,



атрофидагиларни алдаб кун кечиришлари, яна бир-бирларига луқма ташлаб гап отишлари ишламай, меҳнат қилмай кун кечиришлари асарда намойиш этилади. Танланган ҳар бир ёш актёр қаҳрамонлари ички ҳолатини таъсирли ижро этишга муваффақ бўлди. "Актёрнинг асосий иш қуроли унинг эмоционал (ҳис - туйғу) хотирасидир. Ўзи яратмоқчи бўлган сиймонинг ички дунёсини тўлақонли очиб бериш учун актёрнинг ҳаётий тажрибаси ва интеллектуал хотирасининг кучли бўлиши кўл келади." Ҳақиқатдан катта саҳнада, устозлари эътирофига сазовор бўлиш шоғирдлар учун катта имтиҳондек гап. Бу борада кўп йиллик тажрибага эга устозлар мактаби уларга "устоз-шоғирд"анъаналарини давом эттиришлари кўмак берди. Саҳна асари асосан лицей, коллеж ва мактаб ўқувчиларига намойиш этилган. Мансур Қурёзовнинг "Ҳушёрликка даъват" асарида бугунги кун ёшлари ўртасида авж олаётган гиёҳвандлик, диний экстеримист гуруҳларга ғойибона кириб кетишнинг салбий оқибатлари асосий мавзу қилиб олинади. Бу спектаклда ҳам театрда ижод қилаётган ёш актёрлар ижро этишади. Бу мавзунини давоми сифатида К.Авазнинг "Сўнган умидлар" драмаси ҳам мисол бўла олади. Чунки гиёҳвандликка ружу қўйган кимсалар ва уларнинг қилмишлари оқибатида битта катта бадавлат оиланинг еврилиши, ундаги ота-она, янги келиннинг қолаверса ҳали ўн гулидан бир гули очилмаган 20 ёшли Мирзонинг тақдири намойиш этилади. Асарда 40 ёшли қора оғу гирдобига тортувчи Рафиқ исмли кимса асар марказида туради. Унинг шериги Мирзо норкоман 25 ёшларда, унинг укаси ҳали ўртоқлари билан болаликнинг шўх шодонлигини чанг кўчаларда тўп тетиб ўйнаб ўтадиган 10 ёшли Сардорлар. Спектакл воқеалари жараёнида шуни англашимиз лозимки, бу нафақат ёшларимиз балки ёши катталарга ҳам фарзанд тарбиясида, оиладаги муҳитни бир текис ушлаб туришга туртки беради. Спектакл бугунги кун ёшларини эртасини ўйлаб иш тутишларини, ота-оналари қадрига етишларини уқтиради. Яна ён-атрофимиздаги, дўсту-биродарларимизни нима мақсадда эканлигини англашга ҳам ўргатади. Бу спектакл театр режиссёри Одамбой Абдуллаев томонидан ижодий гуруҳни кучли танлаб саҳналаштирилди.

Театрда Гулчеҳрабону қаламига мансуб "Қайнона кўрмаган келин" асар ҳам қобилиятли актёрларидан бири, бугунги кунда театр бош режиссёри халқ артисти Ҳажи Ортиқов саҳналаштиради. Спектаклда асосан қайнона келин муносабатлари, оила муҳитидаги қайнона кўрмаган келиннинг турмушида учрайдиган паст-баландликлари, эрига бўлган муносабати қолаверса оиладаги барча тўсиқларни енгил-елпи ҳал қилиб "сувдан қуриқ чиқади"ган келинлар мавзуси қаламга олинган. Келин образини маромига етказиб ижро қилган Дилафрўз Каримовага театр жамоасининг яна бир карра ишончи ортди. Нимага деганда, театрда олий маълумотли ўз мутахассислиги бўйича ижод қилаётган ёш кадрлар деярли йўқ. Бу бўлажак ёш актриса Каримова Дилафрўз Урганч Харратов номли мусиқа билим юртида таҳсил олади.

Режиссёрлар икки йил давомида театр биносида спектакл саҳналаштириб, катта саҳнада намойиш қила олишмади. Негаки, бир йилга мўлжалланган театр реконструкция ишлари икки йилга чўзилди. Бу эса ижодий жамоанинг бир оз ишдан узилишига тўсқинлик қилди. Шу ўринда ҳам театрдан ташқарида яъни бошқа катта бинолар коллеж залларида спектакллар намойиши режалаштирилди.

Репертуардан ўрин олган "Олтин топган қўллар" (муал.Қ.Матризаев, реж.К.Тожибоев), "Ҳушёрликка даъват" (М.Қурёзов, реж. М.Қурёзов), "Тўрт эгизак" (П.Панчев, реж. Ҳ.Ортиқов), "Сўнган умидлар" (К.Аваз, реж. О.Абдуллаев), "Тандир" (К.Аваз, реж. Ж.Нуралиев), "Уч дангаса"мус.ком. (Ж.Маҳмуд, реж. Ж.Рўзметов), "Қайнона кўрмаган келин" (Гулчеҳрабону, реж. Ҳ.Ортиқов), "Осмондан тушган бахт" (С.Сирожиддинов, реж. Қурлимурод Ёқубов) ушбу асарлар



2007 йилдан, 2009 йилгача саҳналаштирилиб, театр репертуарини бойитиб келди.

Бугунги кунда Огаҳий номидаги Хоразм вилояти мусиқали драма ва комедия театрида репертуар масаласига, театр жамоасида ижод қилиб келаётган ёш кадрлар масаласи долзарб бўлган муаммоли масала ҳисобланади.

Яна шуни ҳам айтиб ўтиш лозим. Режиссёр, рассом, бастакор, актёрлар жамоаси янги асар саҳналаштирилгандан кейин уни ТВ орқали анонс реклама қилишни ҳам йўлга қўйиш керак.

Қобилиятли ўз соҳаси бўйича билим олган актёрларни театрга жалб қилиш чора-тадбирларини топиш ўта муҳим масаладир.

Адабиётлар:

1. М.Қодиров. Ўзбек театри анъаналари . Тошкент- 1976 -йил.
2. Турсунов.Т. "XX - аср ўзбек театри тарихи". Биринчи ва иккинчи китоблар. Тошкент- 2009-йил.
4. Тоҳир Исломов "Тарих ва саҳна" Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент -1998-йил.
5. Комил Аваз "Олис оҳанглар". Тошкент- 1997- й.

**TADQIQOT.UZ**  
**ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"**  
**МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ**  
**ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ**  
**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(12-қисм)**

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.05.2020

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000